



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUXAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQA VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI


QURBONOV FAZLIDIN XUSANBOYEVICH

« **UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DARSDAN TASHQARI**

TADBIRLAR O'TKAZISHNING AXAMIYATI »

5141000-musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish
uchun yozgan

Bitiruv malakaviy ishi



Ilmiy rahbari:

N.Xakimov

Andijon- 2013

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DARSDAN TASHQARI

TADBIRLAR O'TKAZISHNING AXAMIYATI.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-6
I BOB. MAKTABLARDA TADBIRLARNING MAZMUNLI O'TISHI UCHUN TO'GARAKLAR TASHKIL ETISHNING OMILLARI	
1.1.Qo'shiqchilik to'garagini tashkil etishning xususiyatlari.....	7-23
1.2. Milliy qadriyatlarga bag'ishlangan tadbirlarning pedagogik imkoniyatlari.....	24-28
II BOB. O'QUVCHILARNI ESTETIK, MA'NAVIY TARBIYALASHDA TADBIRLARNING O'RNI	
2.1. Bayram tadbirlari orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish.....	29-41
2.2. Umumta'lim maktablarida tadbirlarni mumtoz musiqa bilan bog'liqlik xususiyatlari	42-55
XULOSA.....	56-59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	60
ILOVALAR	

**UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA DARSDAN TASHQARI
TADBIRLAR O`TKAZISHNING AXAMIYATI.**

REJA:

KIRISH

**I BOB. MAKTABLARDA TADBIRLARNING MAZMUNLI O`TISHI
UCHUN TO`GARAKLAR TASHKIL ETISHNING OMILLARI**

1.1. Qo`shiqchilik to`garagini tashkil etishning xususiyatlari

1.2. Milliy qadriyatlarga bag`ishlangan tadbirlarning pedagogik imkoniyatlari

**II BOB. O`QUVCHILARNI ESTETIK, MA`NAVIY TARBIYALASHDA
TADBIRLARNING O`RNI**

2.1. Bayram tadbirlari orqali o`quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish

2.2. Umumta`lim maktablarida tadbirlarni mumtoz musiqa bilan bog`liqlik
xususiyatlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR

KIRISH

«Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga xurmat-e'tibor mustaqil Vatanimizga mexr-muxabbat ruxida tarbiyalash talablari oldimizga qo'yilgan muxim vazifalardan biridir» deb ta'kidlaydi yurtboshimiz I.A.Karimov. Prezidentimiz fikrlari milliy musiqa madaniyatimiz yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda katta ijtimoiy-tarbiyaviy va badiiy-estetik ahamiyat kasb etuvchi dolzarb ilmiy va amaliy muammo ekanligini ko'rsatadi.

Estetik tarbiyaga shunchalik e'tibor berilishining sababi, dastavval san'atning ijtimoiy xayotda bajaradigan ijtimoiy vazifalari bilan izoxlanadi. Biz bu o'rinda san'atning tobora muxim rol o'ynayotgan xususiyatlaridan biri ustida to'xtalmoqchiman. Bu xususiyatning negizi shundan iboratki, musiqa san'atining boshqa-turlariga nisbatan insonning bevosita xis tuyg'ulariga murojaat qiluvchi soxadir. Davlatimizning taraqqiyoti tufayli, madaniyatimizda, insonning ma'naviy xayotida aql idrok va zukkolik bilan ish ko'rish jarayoni sezilarli darajada kuchayib borayotgan xozirgi davrda musiqa san'atining bu xususiyati muxim axamiyat kasb etadi.

Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiya qilish bu juda murakkab jarayondir, u bilim malakalarini yuqori darajada oshira olishi, dunyoqarashining kengligi va uni tadbqiq eta olish, birorta soxada yuqori darajada ixtisoslasha olishi lozim. Yuqoridagi fikrlar va talablar yyetuk shaxsning shakllanishida muxim o'rin tutadi. Natijada shaxsning uyg'un rivojlanishi yuqoridagi sifatlarda yaxlitligida ravshan namoyon bo'ladi. Ana shu ma'noda mening BMI mavzuyim umumta'lim maktablarida darsdan tashqari tadbirlar o'tkazishning axamiyatiga bag'ishlanadi. Men ushbu mavzuni bejiz tanlamadim uning dolzarbligini shundaki, tadbirlar yoshlarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini bekorga sarflanishini oldini olish va ularni nazorat qilish imkonini beradi. Ma'lumki, har qanday xuquqbuzarlik va noxush voqealarni keltirib chiqaradigan omil bu-bekorchilikdir. Xalqimizda “Bekorchidan xudo bezor ” degan naql bekorga aytilmagan. Chunki bekorchilik

yoshlar ma'naviyatiga kuchli ta'sir etib, ularning ongida bo'shliq xosil qiladi. Bu esa ularning turli oqimlar va noto'g'ri g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'ladi. Yoshlarni ana shunday oqim va g'oyalar taxdididan qutqarish va ularni har tomonlama yetuk komil inson sifatida tarbiyalash uchun sinfdan tashqari mashg'ulotlarni, xususan qo'shiqchilik to'garaklarini tashkil etish va jonlantirish kutilgan natijalarni beradi deb xisoblayman.

Ma'lumki, O'zbekistonda adabiyot, madaniyat, san'atni gullashiga xar bir shaxsni o'z qobiliyatini namoyon qila olishiga estetik tarbiya xalqning badiiy did va madaniyatini oshirishga sharoit yaratib berilmoqda va g'amxo'rlik qilinmoqda.

Milliy musiqamizning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati davlat miqyosidagi ishlardan biri ekanligini Prezidentimizning xar yili "O'zbekiston Vatanim manim", "Nixol", "Sharq Taronalari" xalqaro festivali va bir necha san'atni rivojlantirish va uni inson tarbiyasidagi o'rnini ko'tarishga qaratilgan farmon va qarorlarda o'z aksini topib kelmoqda.

Ko'pincha faqat estetik tarbiya ko'rgan insongagina o'z madaniyatini butunligicha namoyon qila oladi. Estetik tarbiya ko'rmagan inson jamiyat vazifalarni to'laligicha ado eta olmaydi. Uning hayotini, borliqni sezishni qashshoqlashgan va rangsizlashgan bo'ladi. Bunday insonlar xis — tuyg'ularini va kechinmalarini his qila olmaydilar. Shuning uchun estetik tarbiya xozirgi zamonda oldingi o'ringa qo'yilmoqda.

Estetik tarbiya — xalqimizning ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. Estetik tarbiyaning maqsadi — Insonlarni bilimini oshirish, xis qilish olamini tiklash, madaniy hayotga qiziqishini rivojlantirish va tiklash.

Estetik tarbiyani muammolari - juda keng. Bola tarbiyasida estetik tarbiyaning umumiy shakllari: tasvirlash, g'oyaviy hayajonni sezish va xaqiqiy san'at ko'rinishlarga munosabati, ijodiga qodirligi, badiiy did, go'zallikka intilish, bilim va malaka faoliyatlari aynan to'garak mashg'ulotlari davomida to'laqonli shakllantiriladi.

Shuning bilan insonda aloxida fazilatlarni shakllantiradi va hayoti davomida xar tomonlama xar xil soxada faoliyatini rivojlantiradi. Estetik tarbiya

avvalambor inson yashayotgan muhitga, uning fikrlashiga, tushunchasiga, qarashlariga ta'sir qiladi. Shuning uchun estetik tarbiyaning zarur masalalari badiiy tasvir, fikrlashdan tashqari yuqori estetik didni shakllantirish, faxmlamoq va estetik xis qilishni idrok ettiradi.

So`nggi yillarda turli tuman musiqaviy muxitning paydo bo`lishi, didni o`tmalashtiradigan turli tuman, jarang jurung ovozlardangina iborat kuy va qo`shiqlarning musiqaviy texnika apparatlari orqali tarqalishi xaqiqiy musiqa shinavandalarining, professional musiqashunoslarning xaqli e'tiroziga sabab bo`lmoqda.

Xozirgi kunda musiqa faqat kontsert zallari, musiqali teatrlar saxnasidagi jaranglab qolmay, balki u kino ekranlari va televidenie kanallaridan, magnitofon yozuvlari xamda disket orqali shinavandalarga yetib boradi. Shu bilan birga, musiqa xozirgi paytda keng avj oldirilgan xavaskorlar ijrosida xam yangramoqda. Musiqa bizga quvonchli kunlarda xam, qayg`uli damlarda xam, rasmiy marosimlarda xam, uyda xam, mexmondorchilikda xam, dam olish paytlarida xam xamrox. Shu boisdan aytish mumkinki, musiqa bizni xatto, ta'qib qila boshladi.

Musiqa olamida vujudga kelgan bu axvol maxsus o`rganishni talab qiluvchi qator murakkab va o`ziga xos masalalarni keltirib chiqarmoqda. Bular ichida eng muxim masala umumta'lim maktablarida o`quvchilarni bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazishda turli to`garaklarni tashkil qilish masalasidir.

Qo`shiq insonlarning xis tuygularini rivojlantiradi, u orqali inson nafaqat xaqiqatga erishadi, balki o`zligini topadi va shaxs sifatida shakllanadi, chunki san'at shunday kuchga egaki insonni ruxiy dunyosiga ta'sir qiladi. U xis tuyg`ularimizni chuqurlashtiradi, rivojlantiradi va yo`lga soladi, hayol orzularini uyg`otadi, o`y fikrlarimizni ishlashga majbur qiladi, ma'naviy qarashlarni shakllantiradi, bilim darajasini kengaytiradi, g`oyaviy tutgan o`rnini mustaxkamlaydi, fikrlar tug`diradi.

San'at o`z tabiati bilan – sexrli olam. San'atni xis etish, idrok etish, undan ma'naviy baxra olish bir qator masalalarni yechimli bo`lishini talab etadi.

Shulardan biri o`quvchi yoshlarni musiqaga o`rgatish jarayonida aloxida o`rin tutadigan psixologik xolatlarni ko`rib chiqish lozimdir.

Mening bitiruv malakaviy ishim kirish, ikki bob, to`rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. BMI ning birinchi bobida maktablarda tadbirlarning mazmunli o`tishi uchun to`garaklar tashkil etishning xususiyatlari yoritib berilgan. Ushbu bob ikki paragrafdan iborat bo`lib mazkur bobda qo`shiqchilik to`garagini tashkil etishning xususiyatlari va milliy qadriyatlarga bag`ishlangan tadbirlarning pedagogik imkoniyatlari haqida bayon qilingan.

Bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi bobida o`quvchilarni estetik, ma`naviy tarbiyalashda tadbirlarning o`rni haqida ushbu bobning ikki paragrafida esa bayram tadbirlari to`g`risida bayon qilingan. Barcha mavzu materiallari aniq manba va dalillar asosida yoritildi.

I BOB. MAKTABLARDA TADBIRLARNING MAZMUNLI O'TISHI UCHUN TO'GARAKLAR TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI

1.1.Qo'shiqchilik to'garagini tashkil etishning xususiyatlari

Maktabdan tashqari ta'lim turli hil tartibbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, yoshlarning turli oqimlar ta'siriga berilishiga yo'l qo'ymaslikning muhim omili sanaladi. Buning uchun talabalarni salbiy oqimlarga kirib ketmasliklari uchun ularni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishlari uchun to'garaklar bilan shug'ullanishlari kerak bo'ladi.

To'garak mashg'ulotlari bilan dars o'rtasida ba'zi bir umumiyliklar mavjud. Bunga mashg'ulotlarning tashkiliy shakli, to'garak rahbarlari qo'llaydigan metod va usullar, mashg'ulotlarda o'quvchining faolligi va tashabbuskorligiga erishish va unga tayanish mashg'ulotlarining yangi xulosalar bilan yakunlanishi kabilar kiradi.

To'garak mashg'ulotlari bilan dars o'rtasida ba'zi bir umumiyliklar mavjud. Bunga mashg'ulotlarning tashkiliy shakli, to'garak rahbarlari qo'llaydigan metod va usullar, mashg'ulotlarning yangi xulosalar bilan yakunlanishi kabilar kiradi.

Musiqasi san'atlar orasida o'zining ta'sir kuchi jixatidan asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda respublikamiz miqyosida badiiy to'garaklar, musiqasi maktablari, bolalar va madaniy-oqartuv muassasalariga katta e'tibor berilmoqda. Bu muassasalarning asosiy maqsadi yoshlarni san'atga jalb qilish, milliy qadriyatlarimizni qadrlashga o'rgatish va ularda musiqiy qobiliyatni rivojlantirishdan iborat.

“Xor”, “Cholg'uchilar”, “Ashula va raqs” to'garaklari “musiqasi madaniyati” o'quv predmetining mantiqiy davomi, chuqurlashtirilgan ta'lim shakli xisoblanadi. Shuning uchun to'garak xonalarini zamonaviy texnika bilan jixozlash, cholg'u asboblari va o'qitish vositalari bilan ta'minlash, dastur va uslubiy qo'llanmalar bilan boyitish lozim bo'ladi.

Mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligini ta'minlash uchun:

-musiqiy to'garaklarga jalb etish bo'yicha targ'ibot ishlarini rivojlantirish maqsadida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, maktablarda to'garak qatnashchilari ishtirokidagi kontsertlar, uchrashuvlar tashkil qilish, to'garak rahbarlarining maktab bilan uzviy aloqasini o'rnatish zarur.

Maktabdan tashqari to'garaklarda olib boriladigan barcha ishlar faqat tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, balki yoshlarga ta'lim berishni ham ko'zda tutadi.

Tajriba va kuzatishlar respublikadagi bir qator maktablarda qo'shiqchilik to'garagi tashkil etilgan bo'lsada, ammo olib borilayotgan ishning xajmi va ayniqsa mazmuni ta'lim-tarbiya talablariga xali to'liq javob bermasligini bu borada ko'p ishlar qilinishi lozimligini ko'rsatdi. Qo'shiqchilik to'garagining mashg'ulotlariga san'atga qiziqqan va ashula aytishni istagan IV, V, VI, VII, VIII sinf o'quvchilari jalb qilinadi, ular albatta ashulabop ovozga ega bo'lishlari shart.

Umumta'lim maktablaridagi to'garagining mashg'ulotlari sinfdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladi. O'quvchi o'zining bevosita bilim olishdan ozod bo'lgan vaqtini ixtiyoriy ravishda qo'shiqchilik to'garagi mashg'ulotlariga qatnashish uchun sarflaydi. Shuning uchun bu to'garak mashg'ulotlari o'quvchining qo'shiq sirlarini puxta o'rganishiga yordam berishi, uning tasavvur doirasini kengaytirishi, madaniy va ma'naviy saviyasini, binobarin, estetik didini oshirishi lozim.

Maktablardagi vokal to'garaklari quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

O'quvchilarga qo'shiq san'ati yordamida g'oyaviy-estetik tarbiya berish, ularning garmonik rivojlangan kishilar bo'lib yetishishlariga ko'maklashish;

O'quvchilardagi vokal sezgisi, vokal-texnik va ijrochilik qobiliyatlarini o'stirish, ovozlarni parvarish qilish va mustaxkamlash. Ulardagi vokal malakalari va iqtidorlarini har jixatdan rivojlantirish, ovoz imkoniyatlariga mos keladigan turli qo'shiqlarni o'rganib olishlari va to'g'ri ijro etishlariga erishish.

Qo'shiqchilik to'garagining mashg'ulotlari o'zbek pedagogikasi to'plagan boy tajribalar va ilg'or metodlar asosida olib borilmog'i lozim. Mashg'ulotlar tushunarli, ilmiy, ta'sirchan, qiziqarli va ko'rsatmali bo'lib, o'quvchilarning aktiv

ishtirokida o'tkazilmog'i darkor. Bu xol o'quvchilarning mashg'ulotlarga ongli munosabatini taqozo etadi. Rahbar-pedagogning to'garakdagi o'quvchilar bilan individual ish olib borishi, ular iste'dodining rivojlanishini to'g'ri yo'lga soladi, o'quvchilarning ovoz paylari asta-sekin rivojlanib borishiga putur yetkazmagan xolda, badiiy didlari oshishi va vokal texnikasini egallashlari uyg'un xolda borishini ta'minlaydi. Ko'rsatmalilik asosida ilg'or metod va ta'sirchan vositalardan foydalanish mashg'ulotlarning mazmundorligini oshiradi.

To'garak rahbari san'atga ixlosmand o'g'il-qizlarni tanlab, to'garakka tortganida, ularning xar biri bilan alohida tanishib, suhbatlashib, ovoz apparatlarining axvolini o'rganishi zarur. Bunda u o'quvchilarning vokal qobiliyatlarini birmuncha aniqlab olishga muvaffaq bo'ladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, qo'shiqchilik to'garagiga qatnashuvchi o'quvchilar tezroq ashula o'rganish va aytish payida bo'ladilar.

Ularning ayrimlari radio yoki televidenie orqali beriladigan ashulalarni yodlab olib, o'zlaricha aytib ham yuradilar. To'garak rahbari o'quvchilarni to'plaganda ularning o'zlaricha ashula o'rganishlari ovoz apparatlariga ziyon yetkazishi, ovozini ishdan chiqarishi mumkinligini tushuntirishi kerak.

To'g'ri nafas olish, ovoz apparatining anatomiyasi va fiziologiyasi, ovozni to'g'ri chiqarish, vokal nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan masalalar yuzasidan o'tkaziladigan qo'shimcha suhbatlar esa o'quvchilarning bilim darajasini xar jihatdan mustahkamlaydi, ularning bilim doirasini kengaytiradi. Kompozitorlarimizning bolalarga atab yozgan qo'shiqlari, xalq ijodiy namunalari, vokalizlar to'garak repertuarining markazini tashkil qilishi zarur. Bundan vokal to'garagining rahbari shular bilan cheklanadi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bizning respublikamizda mavjud bo'lgan badiiy havaskorlik kollektivlarining sostavini nazardan o'tkazadigan bo'lsak, ularda turli yoshdagi va kasbdagi kishilar ishtirok etayotganligini ko'ramiz. Bu bir jihatdan, ishni ma'lum darajada mushkullashtiradi, albatta. Maktab vokal to'garaklari esa, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, spetsifik xususiyatga ega bo'lib, ularda rahbar-pedagog maktabda ovozlari xali shakllanmagan, ovoz paylari mustahkamlanib

ulgurmagan, rasta (mutatsiya) bo'lish arafasida turgan yosh talantlar bilan ish olib borishiga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, ovozlar turlicha diapazonga ega bo'ladi. Bu xususiyat, o'z navbatida vokal to'garagidagi ovozlarning xar xilligiga olib keluvchi dastlabki faktordir. Vokal to'garagiga qatnashuvchilar ovozining diapazoni aksari bir yoki ikki oktava (tenor yoxud bariton) bo'lganida rahbarning ishi birmuncha yengillashgan bo'lar edi. Biroq bunda ham to'garak qatnashchilari ovozida bir xillik xavfi tug'ilib qolardi. To'garak qatnashchilarining ko'p ovozli repertuaridan foydalanib ularga xor qo'shiq jonli, xatto kantatalarni o'rgatish imkonini tug'diradi.

Havaskor bilan tanishish muxim va mas'uliyatli jarayondir. Chunki, hamma narsa boshdanoq puxta va aniq bo'lishi kerak. Ba'zan taassurotlar kishini aldab qo'yishi xam mumkin. Ko'pincha yangi havaskorni sinab ko'rishda dastavval uning qobiliyatini tekshirib ko'rishadi. Bunda vokal to'garagiga qatnashuvchi bolaning yaxshi ovozga ega bo'lishi bilan birga, shaklan vokal xususiyatlari (ovozning chiroyli bo'lishi, quvvati, diapazoni va silliqligi), musiqiyli, ijroning atrofdagilarga ta'siri, nutqning ravonligi, umuman, madaniy ijro qilish uslubini sezish va hatto tashqi qiyofasi, artistik ifodalari ham inobatga olinadi.

Ovoz yaxshi bo'lib, musiqa bilan ijro etish qobiliyati pastroq bo'lsa, uni rivojlantirish kerak. Aksincha ovozda kamchiliklar bo'lsa, to'garak mashg'uloti davrida bularni yo'qotish yo'llarini qidirish lozim. To'garak rahbari mana shu eng kerakli xususiyatlar ustida ishlash imkoniyatiga ega. Lekin bolalarning qobiliyatini tekshirishda xar doim ham to'g'ri xulosaga kelaverish qiyin, Bolada yaxshi ovoz, qobiliyat bo'lsa xam, ba'zan u o'z mahoratini ko'rsata olmaydi. Chunki boshqa bir kishining oldida ashula aytganda ayrim bolalar uyaladi. Uning uchun eng kuchli ta'sir tomoshabindir. Bunday xollarda bolalarning miya organlari aktivligi to'xtaydi, shu tufayli bolalar o'zlarining yaroqli ovoz va ijrochilik sifatlarini ko'rsata olmaydilar. Bunday xollarda to'garak rahbari haqiqiy holatni xushyorlik bilan payqab olishi kerak.

Odatda, o`quvchi mashg`ulot paytida ashulani yaxshi aytib, xalq oldida yoki saxnaga chiqqanda o`zini yo`qotib qo`yishi ham mumkin. Biroq bu kamchilik to`garak rahbari yordamida xavaskor saxnada o`rgatilishi bilan yo`qolib boradi. Saxnaga odatlana olmagan havaskor aytish mumkinki, professional san'atkor bo`lolmaydi. Ba'zi o`quvchilar xar xil kamchiliklarga ega bo`lsa ham oz fursat ichida to`garakda yaxshi natijalarga erishadi va bolalar orasida ijobiy taassurot qoldiradi.

Qo`shiqchilik - kishidan butun umrini, iste'dod va mexnat talab qiladigan san'at. Qo`shiqchilik san'ati professional san'at turlari orasida o`zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Vokal san'atining o`ziga xos tomonlari borki, bunda yaxshi ovozga ega bo`lish bilan ish bitmaydi. Tabiat in'om etgan xush ovozdan to`g`ri foydalana bilmoq uchun bu san'at sirlarini qunt bilan, erinmay egallab olishga to`g`ri keladi. Bundagi boshlang`ich ta'lim markazi maktab vokal to`garagidir. To`garak rahbari ish boshlash uchun havaskorlarni tanlab, ularga to`g`ridan-to`g`ri qo`shiq o`rgatib ketavermaydi. U havaskorlar bilan birma-bir tanishib, ularning ovoz imkoniyatlarini ko`zdan kechirib chiqqanidan keyin professional san'at, jumladan uning ajralmas qismlaridan biri bo`lgan vokal san'ati haqida qator suhbatlar o`tkazishi kerak bo`ladi.

Bu suhbatlarda o`zbek vokal san'atining o`ziga xos xususiyatlari va taraqqiyot yo`llari, bu sohaning turli davrlardagi rivoji, xalq tarixida, yangi hayot uchun kurashda o`ynagan roli, shuningdek, san'atning xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalashi xususida iloji boricha kengroq to`xtalsa, o`quvchilarning tasavvur doiralari birmuncha kengayadi. Bulardan ko`zlangan maqsad o`quvchilarda vokal san'atiga qiziqishni oshirish va e'tiqodni mustahkamlashdir.

Vokal san'atining ulkan vakillari ijodi bilan atroflicha tanishish, ular ijrosidagi mashhur asarlarni qayta-qayta tinglash o`quvchilarning, to`garak mashg`ulotlariga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo`lishiga munosib zamin yaratadi. Shuning uchun ham qo`shiqchilik to`garagida qatnashish istagini

bildirib, qo`shiqlar o`rganmoqchi bo`lganlarning safi kengaysa kengayadiki, aslo kamaymaydi.

Qo`shiqchilik to`garagining dastlabki mashg`ulotlarida rahbar-pedagog vokal san'atining eng noyob na'munalari bilan tanishtirishni ko`zda tutsa maqbul ish bo`ladi. Bunda texnik vositalardan foydalanish ancha qo`l keladi. Mashhur vokalist san'atkorlarning magnit plyonkalariga yozib olingan yoxud plastinkalarga (grammofon plastinkalari ko`zda tutiladi) ko`chirilgan qo`shiqlarini havaskorlarga eshittirishdan oldin bu qo`shiqlarning yaratilish va ijro etilish tarixidan bir oz xikoya qilib berilsa, maqsadga muvofiq ish bo`ladi. Bunda havaskorlar o`sha asarni tinglashdan oldin unga ongli munosabatda bo`lishga ko`nikkan bo`ladilar. Bu esa o`sha asarni to`laroq tushunish, uning o`ziga xos tomonlarini ilg`ab olish, nazokatini his etish imkonini tug`diradi. Bunday paytlarda mashhur san'atkorlar haqida xikoya qiluvchi kino jurnal materiallari va vidiomagnitofon lentalaridan o`rinli foydalanish ham yaxshi effekt beradi.

Yosh havaskorlarni vokal san'ati olamiga olib kirishning usul va imkoniyatlari ko`p. Buning ekskursiya shakli ham o`rnida ishlatilsa, o`zini to`la oqlaydi. Bunda biz san'at dargoxlarida bo`lib turadigan kunduzgi kontsertlarga qilinadigan ekskursiyani ko`zda tutamiz. Ma'lumki, professional san'at tashkilotlarida maktab o`quvchilariga abonementlar bo`yicha tematik kontsertlar muntazam ravishda qo`yib berib turiladi. Bunda musiqashunos lektor muayyan mavzuda ma'lum muddat ma'ruza o`qiydi, oraliqda unga illyustratsiya ma'nosida taniqli xonandalar musiqa jo`rligida qo`shiqlar ijro etadilar. Shunga ko`ra to`g`arak qatnashchilari abonementli kontsertlardan ham baxramand bo`lib tursalar ma'naviy olami yanada boyib, estetik didi ortadi, musiqa qobiliyatining o`sish jarayoni tezlashadi. O`quvchilarda vokal san'atiga bo`lgan muxabbatning kundan-kunga orta borishi kelgusidagi mashg`ulotlarning samarali va qiziqarli o`tishiga munosib zamin tayyorlaydi.

Havaskorning ovozini sinab ko`rishda eng avvalo o`zi bilgan biror ashulani aytirib, ovoz diapazonining pianinoda qaysi notadan qaysi notagacha borishi

o'lchab ko'riladi va natijasi yozib qo'yiladi. Bunda uning usulga tushish-tushmasligini aniqlashda eshitish organi va xotirasini tekshirib ko'rish kerak bo'ladi.

Havaskorni qo'shiqchilik to'garagiga qabul qilishda unda, asosan, quyidagi xususiyatlar mavjud bo'lishi hisobga olinadi:

- a) bolaning ovozi yaxshi va ta'sirchan bo'lishi, qo'shiq aytishga qiziqishi;
- b) ashula aytish qobiliyatiga ega bo'lishi, rahbar ko'rsatgan yoki chalib eshittirgan musiqa parchasini qaytarib chalib berishi yoki ovoz bilan aytib ko'rsata olishi.

Bolaning xotirasini tekshirishda mana bunday usulni qo'llash ma'qul: uch-to'rt narsa stol ustiga qo'yib ko'rsatiladida, keyin bolani teskari qaratib turib birortasining joyi almashtiriladi, shunda bola almashtirilganligiga aqli yetib, narsalarni joy-joyiga qaytadan qo'yib ko'rsatsa, u xolda xotirasi talabga javob bergan bo'ladi.

Mashg'ulot o'tkazish davrida bolalar bilan iloji boricha yaxshi munosabatda bo'lish, ularni darsga qiziqтира bilish zarur. Bolalarning psixologiyasi o'zgaruvchan bo'ladi. Shu sababli xar bir harakat xar bir so'z ularda kuchli taassurot qoldirmog'i uchun urinish kerak. Buning uchun vaqt-vaqti bilan mashhur ashulachilar, kompozitorlar va shoirlarning hayoti, ularning bolalik davrini gapirib berib turish, kino, teatr, kontsert zali va muzeylarga madaniy saylga uyushtirish lozim.

Ashulani rahbarning o'zi eng avval yaxshilab o'rganib olishi va bolalarga aytib berishi lozim. Yaxshi ijro etilgan qo'shiqni eshitgan bolada uni o'shanday qilib ijro etishga qiziqish paydo bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlangan barcha sinovlarni o'tkazib bo'lgandan so'ng, jurnal ochib to'garakka qatnashuvchi xar bir bolaning ismi, familiyasi, tug'ilgan yili, ovozinom nomlanishi (o'g'il bolalarda) diskant, altina yoki tenorligi; qizlarda esa diskant, altina yoxud sopranoligi aniqlanib, yozib qo'yiladi.

O'zbekistondagi umumta'lim maktablarida qo'shiqchilik to'garagini tashkil qilib, uni boshqarish uchun quyidagilar talab etiladi:

- rahbar, albatta, san'at sohasida oliy yoki to'liqsiz oliy ma'lumotga ega, ayniqsa pedagogika institutlarining musiqa fakultetini, konservatoriyani yoki musiqa bilim yurtining an'anaviy ijrochilik yoki vokal kursini bitirgan bo'lishi shart. Aks xolda, ish kutilgan natijani bermaydi.

Maktabda qo'shiqchilik to'garagini tashkil qilishda, birinchi galda yetarli shart-sharoit bo'lishi zarur. Buning uchun rahbar, eng avvalo, maktab sharoiti bilan tanishib, to'garak mashg'ulotlarini o'tkazishga klub yoki zal yo biror kabinetni ajratib olishi va uni vokal mashg'ulotiga kerakli musiqa asboblari (pianino yoki royal, magnitofon, radiolar va boshqa milliy cholg'u asboblari) bilan jixozlashi lozim.

Shuningdek, mashg'ulot o'tkaziladigan kabinetda yoki klubda qo'shiq bastalovchi kompozitorlari hamda shoirlarining portretlari devorga osilgan bo'lishi kerak. Kabinetda havaskorlarga eshittirish uchun, ko'proq bolalar ijro etgan qo'shiq, xor va kuylar, ayniqsa vatanparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik ruhidagi qo'shiqlar yozilgan disklar (plastinkalar) turishi maqsadga muvofiq bo'lib, xar mashg'ulotda ulardan birortasini qo'yib eshittirib turish va analiz qilish foydalidir.

Umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari qo'shiqchilik to'garagining mashg'uloti haftasiga ikki marta o'tkaziladi. Shu kunni «repetitsiya kuni» deyiladi. To'garak rahbari havaskorlarning ovozini shakllantirish uchun ularning xar biri bilan 10-15 minutdan pianinoda mashq o'tkazadi. To'garakda xar qaysi sinfdan 2-3 tadan eng yaxshi ovozli, talantli havaskor o'quvchi qatnashadi. To'garak tashkil qilingan yilning yarmida, ya'ni o'quv yilining 2-choragi oxiriga qadar xar bir havaskor 2-3 ta kompozitorlarining bolalar uchun yozgan asarini, 2-3 ta xalq qo'shig'ini. 1-2 ta vokalizni o'rganishi kerak. O'quv yilining ikkinchi yarmida xam, yuqorida ko'rsatilganidek, yangi repertuar beriladi. Umuman, bir yilda xar bir havaskor 6-7 asarni va 2-3 vokalizni o'rganishi shart. To'garak qatnashchilarining vokal malakalari shakllanish darajasi kontsertlar jarayonida imtixonidan o'tkaziladi. Bunda programma tayyor bo'lgandan keyin, kontsert berishdan ilgari maktab direktori va madaniy-oqartuv ishlari bo'yicha

tashkilotchining ishtirokida havaskorlar ko`rikdan o`tkazilishi zarur. Tabiiyki, bu ko`rik to`garak ishining sifatini aniqlashga va eng yaxshi kontsert nomerlarini tanlab olishga imkon beradi. Agar programma puxta o`rganilmagan bo`lsa, u xolda kontsert ko`yish qat'iyan man qilinadi.

Ko`rikdan muvaffaqiyatli o`tgan havaskorlar fermer xo`jaliglarida ishchilari uchun dala shiypolarida kontsert ko`yishlari ham mumkin.

Maktabda, sinfdan tashqari qo`shiqchilik to`garaklarida qo`shiq ashula o`rgatish va ijro etish musiqaning ta'sirchan qudrati vositasida estetik tarbiyani amalga oshirishning asosiy formalaridan biri bo`lib, musiqa savodini chiqarish va musiqa tinglash zaminidir.

To`garak rahbari mashg`ulotni boshlamasdan avval bolalarga o`rgatish uchun tavsiya qilinayotgan qo`shiq materialini puxta o`ylab chiqishi kerak. Repertuarga kiritiladigan qo`shiqlar estetik, g`oyaviy-badiiy qimmatiga qarab tanlanmog`i, o`quvchilarga tushunarli va tematik jihatdan xilma-xil bo`lmog`i zarur. Repertuar to`garakning ish faoliyatini, rahbarning bu sohadagi qobiliyat va iqtidorini ko`rsatuvchi ko`zgudir

Bolalar xalq qo`shiqlarini sevadilar. Shu bilan birga, boshqa xalqlarning qo`shiqlarini ham qadrlab o`rganib boradilar. Rahbar shunga harakat qilishi kerakki, bolalar o`rgangan ashulalarini xar yoqlama tushunib, ta'sirchan kuylasinlar. Bu esa, to`garak rahbarining qo`shikdagi badiiy, obrazni, estetik mohiyatni qanchalik ishonarli ochib bera olish mahoratiga bog`liqdir.

To`garak rahbari xar bir ashulani juda sinchiklab o`rganib, uning g`oyaviy mazmunini bilib, estetik jihatdan musiqaning qanday ta'sir etishini aniqlab olishi zarur.

O`rgatiladigan qo`shiqlar rejasi ilgaridan belgilab olinadi. O`tkaziladigan suhbatlarda qo`shiqning rang-barangligi, qaysi tovushda jaranglab chiqishi, tovush xususiyatlariga diqqat qilinadi.

To`garak rahbari bolalarga qo`shiq o`rgatishda qaysi so`zlarni cho`zib, qaysisini qisqaroq qilib aytish yo`llarini avvaldan o`ziga belgilab qo`yadi. Shuningdek, u qo`shiqni ijro etish texnikasini puxta bilib olib, qachon nafas olish

va qachon nafas olmaslik hamda qaeri qiyinroq va kaysi qismi onsonrok, bolalar uni qanday o`zlashtira olishi yoki o`zlashtira olmasligini aniqlashi kerak.

Rahbar ashulaning qiyin joylarini aniqlagandan keyin, uni o`rgatishni osonlashtirish vositalarini topa olishi zarur. Masalan, bu joylar intonatsiya qiyinchiliklaridan iborat bo`lsa, unga yordamchi mashqlar tuziladi.

Qo`shiq o`rgatishni bir necha asosiy va muxim yo`llari bor. Dastlab bolaning ovozini mashqlar orqali shakllantirish, ya'ni uni ashula aytishga sozlash (tayyorlash lozim) a) qo`shiqning tekstini bir necha bor o`qitish; b) suxbat o`tkazish; v) qo`shiqning kuyini chalib eshittirish; g) qo`shiqni ijro etib qo`rsatish; d) qo`shiqning kuyini o`rgatish; e) o`rganilgan qo`shiqni mustahkamlash; yo) qo`shiqning badiiy ijrosi ustida ishlash va boshqalar. Bularni bajarish izchilligi esa o`rganilayotgan qo`shiqning xususiyatiga bog`liq. Qo`shiqni o`rgatishdan avval, albatta 10-15 minut bolalarning ovozini shakllantirish va o`stirish, rivojlantirish hamda jarangdor, tiniq chiqarish uchun mahsus vakal mashqlardan foydalaniladi. Bu mashqlardan havaskorning diapazoniga mosini pianinoda bajarish zarur.

Bunday mashqlardan so`ng bolalarning diapazoniga, psixologiyasiga mazmunan to`g`ri keladigan, badiiy, g`oyaviy yuksakligi bilan estetik ta'sirchan qo`shiqlar o`rgatiladi.

O`quvchi ashula ijro etayotishda qiynalmasligi kerak. Bunga rahbar juda ahamiyat berishi, axvolining tez-tez so`rab turishi lozim. Agarda bola tomog`i og`rib yoki o`zini noqulay sezsa, rahbar darrov mashg`ulotni to`xtatib, unga dam berishi zarur.

To`garak ish boshlagach birinchi yildagi dastlabki mashg`ulotlarda bolalarning vokal sezgilari va qobiliyatlarini o`stirish bo`yicha turli tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda qatnashchilarning vokal imkoniyatlari, temperamenti va individual xususiyatlari hisobga olinadi; ularga vokal san'ati, uning tarixi va namoyandalari haqida dastlabki tushunchalar beriladi. Mashg`ulot o`tkazishda suhbat metodidan foydalanib, magnitofon, radiola, plastinka singari texnik vositalar ishga solinsa samara yaxshi bo`ladi. O`quvchilarni qo`shiq aytishga

tayyorlash jarayoni ham shunga kiradi. Qo`shiq holati bilan bog`liq bo`lgan o`rinlar, unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz etishga oid mashqlar o`tkazish, to`g`ri nafas olishga o`rgatish natijasida ashula bop tovush hosil qilinadi. Intonatsiyadagi musaffolikni nazorat qilishga ham birinchi yildagi mashg`ulotlar jarayonida kirishiladi. Bular o`quvchilarning qo`shiq aytishiga tayyorgarligini tezlashtiradigan jarayonlardir.

Qo`shiqlarni o`rgatishda o`qituvchi musiqa savodidan ma`lum tushuncha beradi, nota chizig`i mavjud bo`lgan mahsus doska hamda royaldan foydalanadi. To`garakning ikkinchi gruppasiga mansub bo`lgan o`quvchilar birinchi gruppadagilar singari, birinchi yili o`zlariga xar jihatdan mos keladigan asarlarni o`rganib olishlari zarur. Bunda ularga vokalizlardan tashqari tekstli asarlar ham o`rgatiladi.

Mashg`ulotlarning birinchi yilida to`garak qatnashchilari birgalikda ashula aytishni ham o`rganadilar. Bunda ikki kishilik, trio, kvartet, ansambl va xor shaklidagi asarlarni ijro etish ko`zda to`tiladi.

Havaskorlar ashula aytish, musiqaga tushish va uni ilg`ab olishni birmuncha o`rganib olgan bo`lishlariga qaramay mashg`ulotning ikkinchi yilida ularga ashulabop nafas olish, ovozga tayangicha suyanish, diapazonning o`rtasida ovozni silliqlab olish, ovoz harakatchanligini o`stirish yuzasidan ta`lim berib boriladi. Bunda o`kituvchi ko`rsatmali ravishda ish olib borishni sira ham unutmasligi lozim.

Qo`shiqchilik to`garagi rahbari o`quvchilar bilan mashg`ulot o`tkazganda nazariyani amaliyot bilan uzviy ravishda bog`lab olib borishi kerak. O`quvchilarning badiiy jihatdan tarbiyalanishlari, ovozlarining shakllanishi, tovush gigienasi va muxofazasi masalalari ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Bulardan tashqari, o`quvchilarni vokal san'atiga tegishli adabiyotlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borilsa ishda quvonchli natijalarga erishiladi.

Maktablardagi qo`shiqchilik to`garagi qatnashchilari xaftasiga ikki marta o`tkaziladigan mashg`ulotlarda rahbar-pedagogning individual ravishda bergan topshiriqlarini muntazam bajarib boradilar.

Musiq va qo`shiqning kishi sezgisiga ta'siri san'atning boshqa turlaridan farq qilganligi uchun ham uning ishtiyoqmandlari ham ko`proq bo`ladi. Yoshlikda kim ashula aytgisi, musiqa chalgisi kelmaydi, taniqli san'atkor bo`lishni orzu qilmaydi? Shu sababli maktabda vokal to`garagiga qatnashish istagini bildiruvchilar avvaliga ko`plab topiladi. Bolalar ko`pincha o`zlaridagi ovoz qanday xarakterga ega ekanligining farqiga bormaydilar. Chunki ular musiqa qobilimti, xotira, sezgi va tuyg`u nimadan iboratligini bilmaydilar. Xolbuki, bolaning ovozi mutatsiya davriga qadar o`zgarmaydi, ovozi o`shish davrida bo`lgan bola xar narsaga intilavermasligi kerak. Bolalarda o`zlaricha taniqli san'atkorlarga taqlid qilish, ularning ashulalarini aytishga o`rinish xollari ko`p uchrab turadi. Maktab pedagoglari, birinchi navbatda, qo`shiqchilik to`garagi rahbari buning oldini olishi kerak.

To`garak qatnashchilari bilan o`tkazilgan dastlabki suhbatda vokal san'ati, uning atoqli namoyandalari, to`garakning strukturasi, mashg`ulotlarni o`tkazish tartibi, o`quvchilar oldiga qo`yiladigan asosiy talablar haqida iloji boricha keng va atroflicha ma'lumot berildi. Musiq va uning sexrli olami, atoqli namoyondalari haqida ma'lumotlar berilgandan keyin, asosiy ish qo`shiq o`rgatish jarayoniga o`tildi.

Qo`shiqchilik to`garagi rahbari o`z zimmasida muxim va mas'uliyatli vazifa turganligini sira ham unutmasligi kerak. Binobarin, to`garakning mashg`ulotlari garchand sinfdan tashqari vaqtda o`tkazilsa xam, xuddi sinf mashg`ulotlari kabi tartibli, uyushqoqlik bilan ta'sirchan va metodik, jihatdan maqsadga muvofiq darajada muntazam o`tkazib borilmog`i lozim.

Qo`shiqchilik to`garagi mashg`ulotlarining yo`qlamasi bo`lib, unga qatnashuvchilarning davomati va o`zlashtirishi, o`quvchilarga o`rgatilayotgan musiqa materialining nomi, mazmuni va vaqti qayd etib boriladi. Bu narsa boshqa predmetlar qatori o`quvchilarning to`garak mashg`ulotlaridan o`zlashtirish ko`rsatkichlarini kuchayib borishiga, ishdagi ba'zi bir nuqsonlarga o`z vaqtida chek qo`yishga imkon beradi.

To'garak rahbarining dars rejasida xar oydagi mashg'ulotlarda taqdim qilmoqchi bo'lgan materiallari, to'garak mashg'uloti bo'ladigan kun va soat ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

To'garak rahbarining dars rejai, yo'qlamasi va ko'rgazmali qurollarining qay axvolda ekanligi maktab ilmiy bo'lim mudirining nazoratidan o'tib turishi o'z-o'zidan ma'lum, albatta. Bu esa vokal to'garagi rahbariga zimmasidagi ma'suliyat katta ekanligini eslatib turadi.

O'quvchilarni vokal to'garagi mashg'ulotlariga tayyorlash ancha mas'uliyatli ish. Chunki to'garak o'quvchi uchun tamom ila yangi omildir. Umumta'lim maktablaridagi vokal to'garagida o'quvchi o'zi g'oyibona tanish bo'lgan musiqa va ashula olami bilan tanishadi, bunda uning iste'dod kurtaklari rivojlanib, qobiliyati va imkoniyatlari yuzaga chiqa boshlaydi.

Musiqa va ashulaga ixlosmand, yaxshigina ovozi tufayli istiqboli bo'lgan o'quvchilarni maktablardagi qo'shiqchilik to'garaklariga tortish, ular bilan samarali ish olib borish faqat maktab ma'muriyati va to'garak rahbarininggina ishi bo'lib qolmay, balki butun jamoatchilikning ham ishi bo'lishi kerak. Chunki, kelajak yoshlarniki, kelajak uchun qayg'urish esa xar bir pedagogning burchidir. Bu ish vokal to'garagi rahbaridan va g'oyat extiyotkorlik, xushyorlik, mas'uliyat va maxorat talab qiladi. Chunki to'garakka qatnashish ishtiyoqida bo'lgan o'quvchi ashula o'rganishni istaydi va bunga intiladi. Shunda rahbar undagi qobiliyatni to'g'ri va o'z vaqtida payqab, ovoz imkoniyatlarini o'rgansa, uni yo'lga qo'yish, to'g'ri rivojlantirish bilan mashg'ul bo'lsa, bolaning ovoziga putur yetmaydi. To'g'ri kelgan ashulani aytavermaydi, musiqa sezgisini to'g'ri rivojlantiradi.

Bolalarning ovoz imkoniyatlarini aniqlab olgandan keyin, ular bilan yalpisiga «Do major gamma»ni chorak, yarim va butunicha aytirib chiqish usulini qo'llash mumkin. Bu ham yaxshi natija berdi. O'quvchilar musiqa ritmini yanada tushunarliroq his etadigan bo'ldilar va ovozda uyg'unlikka erishish lozimligini yaxshi tushunib oldilar.

Bolalar bilan dastlabki suhbatlar tugab, sinovdan o'tkazish ishlari nihoyasiga yetkazilgandan keyingina ularga ashula o'rgatishni boshlasa bo'ladi. Biroq, birinchi ish hiyla murakkab va mas'uliyatlidir, Chunki, birinchi o'rgatiladigan ashula bolalar taqdirini xal qilishda, ya'ni ularda bu ishga zo'r ishtiyoq uyg'otishda muxim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham birinchi o'rgatiladigan qo'shiq xar jihatdan ibratli bo'lmog'i kerak.

O'quvchilarga biror ashula o'rgatmoqchi bo'lganimizda, avvalo, o'sha ashulaning mavzusi va mazmuni, ijodkorning kimligi, o'zbek san'atida tutgan o'rni xaqida iloji boricha kengroq gapirib berishga harakat qilamiz. O'quvchi o'rganiladigan qo'shiq haqida to'la tasavvurga ega bo'lgandagina unga qiziqadi va ishtiyoq bilan o'rganadi. Bunda rahbarning o'zi ashulani bir-ikki marta yaxshilab ijro etib berishni unutmasligi kerak. Bunda u ashulaga o'quvchilar e'tiborini jalb qiladi.

Ashulaning matni yozdirilib, yod oldirilgandan keyin uni o'rgatishga kirishiladi, musiqaning taktlariga tushish, uni buzmaslik, ritmga e'tibor berish qayta-qayta uqtiriladi va xar qadamda kuzatib turiladi.

To'garakdagilarning bari ashula aytishga yakka-yakka o'rgatilmaydi, nega deganda bu juda ko'p vaqt oladi. Shuning uchun yalpi o'rgatish uslubi bunda qo'l keladi, biroq bir-ikki xavaskor yetakchilik vazifasini o'tasa ham yomon bo'lmaydi. Xar yangi ashula o'rgatilganda, yetakchilikka yangi-yangi havaskorlar tanlab borilsa, ish juda ham unumli bo'ladi.

Bolalarga qo'shiq o'rgatish ishining qanday olib borilishi uning xarakteriga ham bog'liqdir. Chunki qo'shiqlar bir ovozli, ikki-uch ovozli, ko'p ovozli bo'ladi. Masalan, bunda kompozitorlarimizdan D.Zokirov «Yangi yilim-yaxshi yilim», qo'shiqlaridan foydalaniladi. Birinchi qo'shiqni to'rt xavaskor, ikkinchi qo'shiqni ikki havaskor, uchinchi qo'shiqni esa olti xavaskor ijro etadi. Bu xam, yuqorida aytib o'tganimizdek, samarali natija beradi, yaxlit va yaxshi ijrochilarni vujudga keltiradi. Bunda texnika vositalaridan unumli va o'rinni foydalanishni unutmaslik kerak.

Qo`shiqchilik to`garagida o`quvchilarga yengil va oson ashulalar o`rgatilgandan keyin murakkab ashulalarga o`tiladi. Bu, endi rahbarni xam, o`quvchilarni ham uncha qiynamaydi. Chunki, ma'lum tayyorgarlik va mashq murakkab ashulalarni o`rganib olishni bir muncha yengillashtiradi. Bu esa to`garak repertuarini kompozitorlarimizning baxtiyor avlod madhiga va Vatan, do`stlik va qarindoshlik tarannumiga bag`ishlangan eng yaxshi asarlari bilan boyitish imkonini beradi.

Qo`shiqchilik to`garagi mashg`ulotlarida o`quvchilar garchi uch-to`rtta ashulani ko`pchilik bo`lib yoki yakka xolda ijro etishni o`rganib olgan bo`lishlariga qaramay, birdan murakkab qo`shiqlarga o`tish yaramaydi. Chunki mashg`ulotlarda soddadan murakkabga borish kerak, yengil vokalizlar va qo`shiqlar ma'lum tayyorgarlikdan keyin o`rgatiladi.

Havaskorlar bilan individual ish olib borish natijasida o`quvchilar qisqa vaqt ichida uch-to`rttadan qo`shiqni mustaqil ravishda ijro etadigan bo`ladilar. Ularning xar biriga kompozitorlarning qo`shiqlari pianino jo`rligida o`rgatildi. Qo`shiqlarning bolalar ovozi va yoshiga to`g`ri kelganligi, kuyning yengil va ravonligi juda qo`l kelib, ularni o`zlashtirish tezlashdi.

Qo`shiqchilik to`garagidagi o`quvchilar ana shunday ma'lum musiqa malakasi hosil qilganlaridan so`ng, ularning umumiy qo`shiq aytishlariga kirishiladi va bunda ko`pchilik bo`lib aytish uchun qo`shiq tanlanadi.

Bir qo`shiqni bir necha o`quvchi-havaskorga o`rgatish maqsadga muvofiqdir bu ish murakkab jarayon bo`lib, bunda ovozlarning uyg`unligi muxim rol o`ynaydi. Ashulaning qanday boshlanishi, qanday tempda davom etishi, kulminatsiyasi va tugashi xar bir ijrochiga ravshan bo`lmasa, musiqasi yaxshi o`zlashtirilmasa kutilgan natijaga erishib bo`lmaydi.

To`garak qatnashchilari bu qo`shiqni yaxshi o`rganib olib borishi ishi kundan-kunga yengillasha boradi, chunki ular endi musiqa olami bilan tanishib, uning sirlarini egallashga kirishgan va ma'lum bir sistemaga tusha boshlaydilar.

Qo`shiqchilik to`garagida qo`shiq ijro etish jamoa faoliyatidir. Qo`shiq ijrochiligi-birdamlikni, musiqiy tuyg`u va sezgirlikni talab qiladi. Bu esa vokal

to`garagi a'zolari ijro jarayonida bir-birlarini o`zaro tushunib, sezib turishi bilan bir qatorda, rahbar bilan ham birdam bo`lishlari lozim ekanligini ko`rsatadi. Qo`shiqchilik to`garagiga jalb qilingan bolalarning qo`shiqni muntazam va o`zaro uyushqoqlik bilan ijro etib turishlari ularni o`zlaridagi ma'naviy boylikni boshqalar bilan baham ko`rishga o`rgatadi. Xavaskor o`quvchining yakka xolda yoki sheriklari bilan jo`rovoz bo`lib qo`shiq ijro etishi mas'uliyat hissini oshirishda muxim rol o`ynaydi. To`garakda qo`shiq ijro etilishidan ijrochilar bilan bir qatorda tinglovchilar ham estetik zavqlanishlari lozim. Biroq bu jarayon yengil ko`chmaydi, aksincha puxta tayyorgarlik va izlanishni talab etadi. Qo`shiq ijrochilari o`z repertuarlaridagi asarning ruhiga chuqur kirib borgan taqdirdagina uning ijrosi go`zal va ifodali chiqishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarni qo`shiq ijrosiga emotsional, ijodiy munosabatda bo`lishga, ijroda asardagi g`oyani ifodalashga o`rgatish juda muhimdir. Ijrochilik shundagina chinakamiga estetik tarbiya jarayoniga aylanadi. Bu esa o`quvchilarning ovozlari o`stirish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Chunki ovoz apparatining umumiy faoliyati qo`shiqqa emotsional munosabatda bo`lgandagina aktivlashadi.

O`quvchilarga vokal tarbiya berish jarayoni ko`p qirralidir. Qo`shiqning ifodali badiiy ijrosi o`quvchilardan vokal malakalarini puxta egallashni talab qiladi. Aks xolda qo`shiq ijrosi kutilgan natijani bermaydi, ta'sirsiz bo`ladi.

Qo`shiqchilik to`garagi rahbari o`quvchining musiqa sezgisini xar taraflama o`stirib borish negizida uning ashulabop ovozini to`g`ri tarbiyalashni unutmasligi kerak. Bu uning birinchi galdagi eng muxim vazifasi hisoblanadi. To`garak rahbari o`z faoliyatida xar bir o`quvchi bilan individual ish olib borib, ovozlar tarbiyasini to`g`ri yo`lga qo`ysa, uning keyingi ishlari ham yurishib ketaveradi, kollektiv oldiga qo`yilgan vazifalarning bajarilishiga qam yo`l ochiladi.

Bolalar, o`smirlar va yoshlarning ovoz apparatlari, turgan gapki, ancha mo`rt bo`ladi. Ular xar jihatdan o`sib borishlari bilan bir qatorda, bunga mos xolda ovoz apparatlari ham o`zgarib boradiki, bu jarayon muntazam va uzluksizdir. Shuning uchun vokal to`garagi rahbari mashg`ulot o`tkazgan

paytlarida bolalarning ovozi muxofaza qilish, asrash va to`g`ri o`stirishga ham jiddiy e'tibor qilishi kerak.

Qo`shiq aytish, o`z tabiatiga ko`ra, kompleks jarayon hisoblanadi. Bola qo`shiq aytganda uning butun organizmi ishga tushadi. Bunda hammasidan ham organizmning ma'lum xar qismi to`la faol ishlaydi, ya'ni tovush hosil qilishda artikulyatsion, nafas, asab-muskul apparati o`zini ko`rsatadi. Ulardan birortasining noto`g`ri ishlashi ashulabop ovoz chiqishi yoxud normal oqimiga xalal yetkazishi mumkin. Shu sababli o`quvchining ijrochilik malakasini tarbiyalash ishi kompleks tarzda olib borilishi va bunda uzilishga yo`l qo`yilmasligi zarur.

Qo`shiqchilik to`garagi qatnashchilari bilan olib boriladigan ishlardan ikkitasini ko`rsatib o`tamiz va amaliy ishda tavsiya qilamiz:

- 1) xar bir to`garak qatnashchisini foniatrik (loringologik) ko`rikdan o`tkazish;
- 2) xar bir o`quvchi ovozini mahsus eshitib ko`rish (o`qituvchi bunday ko`rikni xar yili ikki marta o`tkazib turishi kerak) alohida ahamiyatga ega.

1.2. Milliy qadriyatlarga bag'ishlangan tadbirlarning pedagogik imkoniyatlari

Qadriyatlar qadri - mustaqillik sharofati va istiqlool shukhi ila ko'p orzu – niyatlarimiz ro'yobga chiqmoqda. Yetmish yil ichida yo'l qo'ygan hatto-kamchiliklar tuzatilib, hamma sohalarda haqiqat tiklanmoqda. Jumladan, qadimiy boy va betakror xalq an'analari, urf-odatlar, rasm-rusmlar, marosimlar, udumlar, qisqasi, milliy qadriyatlarimizga jon ato etildi, turmushga keng joriy etila boshlandi. Qadriyatlarimizning oliysi-payg'ambarimiz Muxammad sallalohiy alayhi vassalomning so'zlari, qilgan ishlari va ul ulug' zot tomonidan maqullanmagan boshqa ishlar islomda sunnat deb ataluvchi rivoyat matnlari – hadislar o'zbek tiliga ag'darilib nashrdan chiqarildi va ko'pchilik kitobxonlarga yetib bordi.

An'analar qadim qadimlardan insoniyat turmushi ijtimoiy faoliyati, mehnatidagi ibratli hayot saboqlaridir. Ularni avlod ajdodlar uchun yo'l yo'riq darslaridir desak yanglishmagan bo'lamiz.

Sho'rolar davrida komfirka mafkurasi talabi, taqozosi bilan zukko ota bobolarimiz oqila onalarimiz ijodi, teran aql zakovati o'ziga hos dunyo qarashi va hayotiy falsafasi, ko'p asrlik sinov tajribalari juda chuqur ammo ihcham, lo'nda shaklda chiroyli bayon etilgan, tarixning har hil to'fon unsurlariyu jangu jadallariga bardosh berib , davrdan davrga avloddan avlodga bobodan otaga, otadan bolaga o'tib kelayotgan xalq mafkurasi, manaviyat, marifiy va axloqiy-ruhiy tarbiyasi bilan bog'liq qadriyatlarga shuningdek, xalq an'anaviy pedagogikasini sharqona pand nasihatlar o'gitlar va boshqa katta tarbiya vositalariga befarq qaradi, deyarli axamiyat berilmadi, hatto aytish mumkinki ,kamsitildi. Ha, xalq iborasi bilan aytganda,qo'yni bo'riga topshirib, otardan ajrab qolgan edik.

Shunday qilib, qoloq reaksiya va zararli eski an'analarning moxiyati, ijtimoiy ildizlari, uzoq vaqt saqlanib qolish sabablarini o'rganish va fosh etib tashlashga, odatlarni faol ravishda shakllantirib borish orqali eski jamiyat hulqlari va odatlarini siqib chiqarishga astoyidil harakat qilindi. Bu

sohaning jonyurak allomalari, misilsiz maddox targ'ibotchilari yetishib chiqdi. Ular har qanday urf – odatlar, udumlar, rasm- rusumlar, marosimlar, ya'ni qadriyatlar va an'anaviy xalq pedagogikasi milliy ruh, xulq, o'zbekona odob –axloq mevasi bo'lib, uni yaratgan zukko xalq tarbiyasini asosini tashkil etishligini anglamadilar, to'g'rirog'i, anglasalar ham tan olishni istamay ma'naviy qashshoqlashib qolishimizga sababchi bo'ldilar. Vaholanki, sharqona, birinchi navbatda, o'zbekona qadriyatlar, pedagogik ta'lim - tarbiya, uning bosh tizimi bo'lmish pand nasihatlar, o'gitlar, davatlar, yo'l yo'riqlar, yosh avlodning madaniy, axloqiy-ruxiy, ma'naviy ma'rifiy kamoloti hamda ajismoniy yetukligida asrlar davomida muhim, hal qiluvchi o'rin tutib kelganligi tarixdan ayondir. O'zbek o'g'lonlari va qizlarining o'tmish davrlarda ta'lim tarbiya, axloq-odob, jismoniy qay darajada bo'lganligi barchaga ma'lum.

Ma'naviyat tarbiya demakdir. Prezidentimiz I. Karimov iborasi bilan aytganda, "Ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi axloqi hayotining ma'nosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo'ladi. Vatan, xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma'naviyat belgisidir. Ma'naviyati barkamol inson o'zining savob ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi".

Qadriyatlarni xalq ijod qiladi, ular xalqning bebaho oltin merosi. Ularning saqlovchisi ham, hayotga joriy qiluvchisi ham, eskilarning ma'no – mazmunini yanada sayqallashtiruvchisi va boyituvchisi ham, zamon hamda davrlar, ajdod-avlodlar talab e'htiyojlari, tajribalari asosida asta sekin yangilarini yaratuvchisi va turmushga tadbiq etuvchisi ham ana shu ijodkor xalq, ayrim shaxslar-ular qanchalik zukko bilimdon va donishmand bo'lmasin, ular tomonidan o'ylab chiqilgan, "kashf" qilingan qadriyat xalq tomonidan qabul qilinmasligi, e'tirof etilmasligi tabiiy bir hol. Xalqimiz yaratgan o'zbekona qadriyatlar, rang barang va beqiyosdir. Ularning sanog'i taxminan 5- 10 mingdan oshadi. Bu gapda lof ham yo'q, mubolag'a ham yo'q. Ammo bir haqiqatni unutmaslik kerak. Gap qadriyatlarning qanchalik ko'p

yoki ozligida emas, balki ma'no mazmunining teranligi, jamiyat, hayotga avlod tarbiyasida tutgan o'rni, ta'sir kuchidadir. Shunisi hayratlanarliki, o'zbekona qadriyatlarning har biri mustaqil tarixiy, badiiy estetik, falsafiy – badiiy mukammal asar deb atalishga haqli.

Bizningcha, qadimiy va ayni paytda zamonaviy o'zbekona qadriyatlarni shartli ravishda quyidagi turlari bbbbo'lishi mumkin;

- to'rt unsur; yer, suv, olov, havo haqidagi;
- insonning ona qornida paydo bbo'lishi, dunyoga kelishi uni tantanali ravishdaa ro'yhatga olish, ism qo'yish unib o'sishi bilan bog'liq;
- inson va uning ijtimoiy faoliyati, say harakatlari bilan bog'liq;
- mehnat va mehnatsevarlikka oid;
- zamon, jamiyat, Vatan va vataanparvarlik , millatga el yurtga sadoqatlikka oid;
- ta'lim tarbiya va axloq odob, pand nasihatlar, o'gitlar bilan bog'liq;
- oila, sevgi, ishq, muhabbat va boshqa insonparvarlikka oid;
- xalqona qonnun va qonunchilik, umuman xuquqiy tarbiyaga oid;
- qadriyatlar borasidagi qadriyatlar;
- dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik bog'dorchilik madaniyatiga oid qadriyatlar;
- hayvonlar va o'simliklar - tabiat bilan bog'liq qadriyatlar;
- yigitlar sha'ni, qizlar iffati, inson or nomusi bilan bog'liq;
- to'y marosimlari bilan bog'liq;
- keksalar qadriyati bilan bog'liq;
- madaniyay tasviri va amaliy san'atga oid;
- xalq madaniyati, an'anaviy pedagogika, og'zaki ijodi, elshunoslik va boshqa ilm – fan va madaniyatga oid;
- tarix, til, adabiyot, qadimgi yozuvlarga bog'liq;
- jismoniy tarbiya va sport madaniyatiga oid;
- bayram sayllari va marosim va ma'vsumiy tantanalar bilan bog'liq;
- O'zbekiston tarixi, xuquqchiligi, davlatchiligiga oid;

- Fuqorolik huquqini olish bilan bog'liq;
- to'rtinchi hokimyat-vaqtli matbuot va ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq;
- Harbiy xizmatga chaqiruv, yoshlar, talabalar kunlari bilan bog'liq qadriyatlar.

Ko'rinib turibdiki, islom dini, rasm rusumlari, odatlar xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, etnografiya, udumlar, marosimlar, an'analar, tasviriylar va amaliy san'at, ilm-fan, tabiat, jamiyat, ta'lim-tarbiya, tarix, ijtimoiy hayot va xalq orzu umidlari va ideallari yuqorida sana o'tilgan yuzlab qadriyatlarning manbalaridir.

O'zbek xalqi qadriyatlarining har biri o'ziga muqaddas mo'tabar, ayni chog'da mustaqildir. Har birining umumiylikidan tashqari o'z maqsad vazifalari, yo'nalishlari, uslubiy xususiyatlari, o'ziga hos fazilatlar va tabiati bor.

O'zbek an'anaviy qadriyatlar xususan, xalq pedagogikasi, ogzaki ijod, uning tarkibidagi pandnomalar, o'gitlar, nasihatlar, olqish duolar har kun har daqiqa jonli jarayonlarda yashab, turmush tarzimizni bezab, ayniqsa, farzandlarimizga to'g'ri bo'lish, tog'ri yashash va odob axloqi joyida bo'lishlikni eslatib turuvchi, da'vat qiluvchi manbalardir. Ularning ijtimoiy tarbiyaviy hamda umum bashariy ahamiyati ham, shunda. Qisqasi, o'zbekona qadriyatlarimizning betinim qaynab toshib turuvchi buloqlari chanqoq qalblar chanqog'ini qondiruvchi, tabiatga jon ato etuvchi musaffo chashmalardir. Bu chashmadan ma'naviy-ma'rifiy tashnalikni bostirish uchun qanchalik ko'p istemol qilmaylik chanqog'imiz shunchalik ortib boraveradi. Demoqchimizki, yoshlarimiz xalqona qadriyatlardan nechog'lik ko'p saboq olsalar, ularning tafakkurlari shunchalik boyib, aql idroklari har tomonlama kamol topaveradilar.

Qadriyatlarimizning yana bir umumiy, mushtarak tomoni shundaki, ularning barchasi, insonning iymon-e'tiqodda ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-ruhiy tarbiyada komil odam bo'lishlikka qaratilgan. Barcha qadriyatlar

qatlamiga tarbiya, tarbiya va yana singdirilgan. Darvoqe, islom ibodat, taqvo axloqning odob, do'st-birodarlik, axillik, ota-ona, qarindosh urug'chilik, shuningdek, farrz, vojib, sunnat, mustahab, halol va harom, mehr va oqibat, insof, diyonat va shunga o'xshashlar tashkil etadi.

Xalqona qadriyatlar islomiy qadriyatlarga hamohang bo'lib ularda mehr oqibat, halollik, poklik, adolat, insof, vatanni sevishtirish, elni e'zozlash, mehnatsevarlik, kamtarlik, mardlik, qo'ni qoshnichilik, bbotirlik, hushyorlik, hayr-exson, mehmon do'stlik, qadr-qiyamat, muhabbat, ishq-vafo, sadoqat, umid, taqdir, qarindosh-urug'chilik, sabr-qanoat, rizq-nasiba, tejamkorlik, farosat, g'urur kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Islomiy qadriyatlar ham hayotiy qadriyatlarda ham inson uchun qora dog' bo'luvchi; kufr, razolat, hasad, adovat, hiyonat, yolg'onchilik, fitna fasot, zulm, dilozorlik, hudbinlik, ishyoqmaslik, tekin ho'rlik, haromho'rlik, boqimandalik, tanballik, hoyinlik, fohishalik, ilmsizlik, manmanlik, egrilik, tamagirlik, odobsizlik, noshudlik kabi salbiy hislatlar ayovsiz qoralangan.

Hullas, qadriyatlar mazmuni xalq pedagogikasi qatlamlariga singdirilgan. Ular bag'rida kamol topgan. Demak, Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va oliy majlis tasdiqlagan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun "Qadrlar tayyorlash milliy dasturi" da belgilangan tarixiy qonun qoidalarini amalga oshirish orqali komil insonni tarbiyalab yetkazishda moddiy qadriyatlar bilan bir qatorda ma'naviy qadriyatlar ham olam shumi ahamiyatga ega.

I I BOB. O'QUVCHILARNI ESTETIK, MA'NAVIY TARBIYALASHDA TADBIRLARNING O'RNI

2.1. Bayram tadbirlari orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish

Ma'lumki, ijtimoiy-madaniy xayotni Bayramlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan an'ana, urf-odat va marosimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular turmushning alohida shakli xamda bayramning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. "Marosim", "odat", "an'ana" kabi so'zlar Bayram tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'lgani uchun ularga alohida izoh borish lozimdir.

An'ana-bu o'ziga xos ijtimoiy xodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida, o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

"Odat"("urf-odat")–kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi, hatti-xarakat ,ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hulq-atvor qoidalari, ko'nikma. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mexmonlarga alohida hurmatda bo'lish bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan habar olish, yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi odat hisoblangan.

Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma soxalariga xos bo'lib, hadislarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy xayotning ma'lum soxalarida, ya'ni kishilar turmushi, mexnati hulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlari ko'proq mavjud bo'ladi.

"Marosim" – bu ko'pincha an'ana va urf odatning tarkibiy qismi bo'lib , inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatda o'tadigan,o'zining umum qabul qilingan ramziy xarakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir. Masalan, ism qo'yish marosimi, va xokazolar.

Odatda kundalik hayotning turli vaqtida uchratish mumkin bo'lsa , marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Uning

asosiy burilish daqiqalarini (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lish kabilarni) qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimning avloddan - avlodga o'tiladigan, ramziy va rasmiy xarakatlari, qoidalari mavjud. Marosimga, bo'layotgan voqealar guvoh sifatida odamlar chaqirilgan, ular dardga yoki quvonchga sherik bo'lishgan, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishgan. Xar bir marosimning o'ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi (boshlanishi, o'rtasi oxiri) bo'ladi.

Ko'pincha an'ananing tarkibiy bo'lagi odat, odatning muxim bir qismi marosim bo'ladi. Shu sababli inson xayotida yo'q bo'lib o'tayotgan muxim voqeani turmushda burilish yasaydigan katta "nuqtalar" ni nishonlash jarayonida xam an'ana, xam odat, xam marosim sodir bo'lishi mumkin.

Bu tushunchalarni chuqurroq anglash uchun quyidagi misolga murojaat etamiz. Yoshlar voyaga yetganda-yigitlar uylanishi, qizlar turmushga chiqishlari kerak. Buni avloddan - avlodga o'tib keladigan an'ana desa bo'ladi. Bir-birini sevgan yigit-qizning oila qurishi uchun nikox to'yi o'tkaziladi, albatta. Bu esa o'z navbatida insoniyat xayotiga singgan, muayyan qoidaga ma'lum tartibga ega bo'lgan urf-odat xisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, "an'ana", "odat", "marosim" tushunchalarining izoxi bir-biri bilan bir qatorda an'analarning tarkibiy qismi esa marosim bo'lishi mumkin. Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarning ishlab chiqarishga borib, ish boshlashi bu odat tusiga kirib qolgan. Bu muxim voqeaga bag'ishlanib, xar yili an'anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi - yoshlarni tantanali ravishda ishchilar safiga qabul qilish o'z o'zidan marosimga aylanadi.

Ba'zi xolatlarda "an'ana", "odat" va marosim" tushunchalari aloxida ishlatilsa, abstrakt ma'no anglatishi mumkin. Bunday vaqtda ularga aniqlovchi so'zlar qo'shilib (biron ish jarayoni, xodisa, tadbirlarga nisbatan) ishlatiladi. Chunonchi, an'anaviy bayram, an'anaviy tadbir, an'anaviy festival, an'anaviy kecha yoki insoniy odat, mukofatlash marosimi, to'y marosimi, pensiyaga kuzatish marosimi, va xokazolar shular

jumlasiga kiradi. “ An’ana ” va “ odat ” tushunchalariga nisbatan “marosim” ko’proq bayram bilan bog’liq.

Ba’zi marosimlar (dafn qilish va qayg’uli xodisalardan tashqari) bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo’ladi. ba’zi marosimlar bayram kunidan tashqarida xam tashkil qilinsa, u bayram xolatini vujudga keltirishi mumkin. Demak, birinchidan marosim bayramning tarkibiy (yoki asosiy) qismi sifatiga xam namoyon bo’ladi. ikkinchidan, ko’pgina marosimlar aloxida o’tkazilganda xam bayram xolatini vujudga keltiradi.

Ijtimoiy xayotning shunday muxim bir qonunyati borki , u taraqqiyotning muntazam shaklidagi o’zgarishlar bilan uzviy bog’liqdir. binobarin, biron yangi narsa, xodisa vujudga keladi, ikkinchisi, rivojlanadi, uchinchisi xayot talabiga javob bermay o’z o’rnini boshqa shakllarga bo’shatib beradi vaxokazo. Jumladan, xayotiy an’ana va bayramlar xam xuddi shunday qonuniyatlarga rioya qiladi.

Ijtimoiy xayot taraqqiy etishi bilan uning talabiga javob bermaydigan an’analar va bayramlar asta-sekin unutila boshlandi.

Moxiyatan xalqchil, ijtimoiy foyda keltirish mumkin bo’lgan an’analar taraqqiy etadi. Masalan “navro’z”, “lola sayli” vaxokazo bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun yashab keladi. ijtimoiy xayotning tubdan o’zgarishi xalq turmushining rivojlanishi, zamonga mos an’analar yaratilishini talab qiladi. Chunonchi, o’zbek xalqida ilgari mavjud bo’lmagan ko’plab mexnat va shaxsiy-oilaviy an’ana, marosim va bayramlar vujudga kelmoqda.

Keyingi paytlardagi ilmiy va maxsus adabiyotlarda “an’anaviy bayramlar” , “ yangi an’analar ” kabi tushunchalar ko’proq ishlatila boshlandi.

Ba’zi olimlar va amaliyotchilar “ yangi an’analar “ deganda xayotga singib ketgan, nasldan - naslga meros bo’lib o’tadigan, ma’lum vaqt ichida muntazam tashkil etiladigan madaniy - ommaviy shakllar-“gul bayrami ” , “ lola sayli kabilarni misol keltiradilar.bunday tushuncha albatta noto’g’ri.

binobarin, ular sof “yangi an’ana ” emas , balki yangicha tashkil qilingan qadimiy an’analar , qadim zamonlardan buyon mavjud bo’lgan xalq bayramlaridir. ularni an’anaviy bayramlar deyish to’g’riroq bo’ladi.

“ Yangi an’analar ” atamasi orqali xayotimizga ilk bor kirib kelayotgan va joylarda endigina odat tusiga kirib borayotgan marosim shakllarini tushunish kerak.

60-80 – yillarda kirib kelgan “yangi an’analar ” deganda, zamon talabi bilan xalq xayotida vujudga kelgan marosim shakllari: tug’ilgan go’daklar ota onalariga guvoxnoma yoki voyaga yetgan yoshlarga pasport topshirish, “oltin” va “kumush ” to’ylar, tantanali pensiyaga kuzatish kabilar nazarda tutiladi.

Shuni aloxida ta’kidlabo’tish kerakki, “yangi ” degan sifatlovchi vaqtga nisbatan nisbiy bo’lgani uchun, balki o’n yilliklar o’tishi bilan yuqoridagi shakllar “yangi an’analar” emas, balki an’anaviy marosimga aylanib xam qolishini unutmash lozim.

Ko’rinib turibdiki, “an’ana”, “ odat” va “marosim” kabi atamalar juda ko’p qirrali ijobiy tushunchalardir. biroq biz ta’kidlagan bu muammolar chuqur o’rganilishi lozim va ular o’zining maxsus tadqiqotlarini kutmoqda. bizning asosiy vazifamiz- bayramlar yoki bayram darajasiga ko’tarilgan tadbirlar va bayramlarning tarkibiy qismiga aylangan an’analar, odatlar, marosimlarni o’rganishga qaratilgan.

Odatda, “bayram” deganda xayotdagi muxim voqea, sanani (ko’tarinki ruxda va xursandchilik bilan) nishonlash tushuniladi. bu umuman olganda to’g’ri. biroq bayramlar tushunchasi ancha keng va chuqur ma’noga ega. uning ildizlarini inson tabiatining zaminidan topish mumkin.

Borliqda keskin ikki qarama – qarshi: yorug’lik va qorong’ulik, issiqlik va sovuqlik, yaxshilik va yomonlik, kabi tomonlar bo’lganidek insoniyat xayoti xam kundalik tashvishlar va quvonchlardan tashkil topadi desa bo’ladi. shu boisdan, bo’lsa kerak, Beruniy bayramlarni koinot, borliq

xodisalari bilan bog'lab, xayotdagi "eng muxim kunlar" desa, Maxmud Qoshg'ariy bayramlarni "shodlik va xursandchilik" deb ta'riflaydi.

Darxaqiqat, bayram shunday ruxiy - emostional kayfiyatni vujudga keltiradiki, unda xamma (boshqa kunlarga qaraganda) xursand , shod va baxtiyor bo'ladi. " bayram, - deb yozadi zamondoshimiz A. I. Mazaev , - bu ma'lum vaqtdagi ideal xayotdir".

Insoniyat bayramlari va jumladan o'zbek xalqi bayramlarining eng yaxshi odatlariga ko'ra , ularda quydagi afzalliklar va diqqatga sazovor mavjud:

1) bayram xayotning davomi ma'lum qismi, eng yirik xodisa , voqea, sanalarni qayd etadi, ularni nishonlash uchun kerakli imkoniyatlar yaratadi. bayram ulug'vor ishlarning tantanali boshlanishi va muvaffaqiyatli tugallanishi kabi daqiqalarida xam vujudga keladi. u kishilarning kurashi, mexnati xamda boshqa soxalarda erishgan yutuqlarini ifodalaydigan xodisadir. Bayram - orzu, mexnat, kurashning g'alabasi. u insoniyatning bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglashga, g'alabalaridan faxrlanishga, ertangi kunga yaxshi rejalar tuzib kelajakga katta umid bog'lashga yordam beradi. shu boisdan xam, bayram arafasida kishilar bir - birini tabriklashadi, yutuqlar bilan qutlashadi, kelajak xayotlari uchun yaxshi istaklar bildirishadi, ishlariga muvaffaqqiyatlar, omad, baxt tilashadi.

2) Bayramlar xayotning quvonchli kuni xisoblansada, biroq u vaqtning bir xilligini buzib, unga muayyan ritm baxsh etadi. shu sababli qadimdan bayramlar (ma'lum vaqtda takrorlanib turgani uchun) o'ziga xos vaqt o'lchovi xisoblangan. xozir xam (xamma biladigan ka'lendar bo'lishiga qaramay) bayram kunida muayyan vaqt o'tganligini (masalan, yangi yil nishonlayotganda yana bir yil o'tganligini) chuqurroq xis qilish mumkin. bayram kunlar odamlar ichida: "oradan shuncha... vaqt o'tibdi- ya" degan so'zlarni tez tez eshitish mumkin. Shunday ekan, bayramlar vaqt qadriga yetish, uni e'zozlash uchun sharoit yaratadi.

3) Bayramlar xayotning tamonlarni aks ettiradigan “ ko’zgu” dir. chunonchi kishilar eng yaxshi odatlarning namoyish qiladi, go’zal libos va kiyimlarini kiyishadi, lazzeatli taomlar tayyorlashadi, o’zlaridagi qobilyatlarini, ijodiy havaskorligini namoyish etadilar, xamma ko’tarinki kayfiyatda bo’ladi. Barcha sevgan yomonlikni uchratish qiyin: bayram kuni yomonlar-yaxshi, xasislar-saxiy, xunuklar - go’zal, go’zallar esa yanada go’zal bo’lib ketadilar. bayram kuni odamlarning libosi, go’zalligiga qarab to’ymaysan, kishi.

4) Bayramlar ozodlik va erkinlik kuni xisoblangan. chunki bayram kuni mexnat qilish ayb xisoblangan, odamlar kundalik ish, vazifa, burch,tashvishlardan ozod bo’lgan. bayram kunlari barcha kiyinchiliklar, dardu alamlar unitilgan, kishilar o’zini o’zi xursand bo’lishga shaylangan. bu kuni odobsizlik, o’g’rilik, zo’ravonlik, fisqu-fasod kabi yaramasliklar unutilgan.

5) Bayram kuni tenglik xukim surgan, boshqa kunlarga nisbatan barcha teng - baravar bo’lgan. xamma bir qozondan ovqat yegan, bir xiltomosha ko’rgan, birga saylgoxlarga chiqib, sayr qilishgan.

6) Bayram tinchlik kuni xisoblangan, urishlar to’xtatilgan. xalq odatlariga ko’ra bu kun xafagarchiliklar unitilgan, o’zaro arazlashganlar yarashgan. tanishlar do’stlashgan. bayramlarda shunday xolat vujudga kelganki, unda omma g’oyaviy-ma’naviy birlashgan, xamjixatlik prinsiplari barkaror bo’lgan.

7) Bayramlarda vujudga kelgan g’oyaviy-ruxiy ko’tarinkilik kishilarni ertangi kunga yaxshi umidlar bag’ishlash, porloq kelajakka ishonch bilan qarash, xayotni yanada go’zal qilishga undaydi. xullas, bayramlar kishilarda optimizim-xayotbaxsh rux uyg’otish uchun xizmat qilgan.

Keng ommani o’z ishtirokchisiga aylantira oladigan bayramlarning afzalliklari xaqida ko’p gapirsa arziydi. ayniqsa, uning ijtmoyiy, madaniy, tarbiyaviy imkoniyatlar xam jiddiy axamiyatga egadir. chunonchi bayramlar

ijtimoiy- madaniy xayot ko'zgusi sifatida xalq vakillarining ijtimoiy, iqtisodiy, mexnat, madaniy, ijodiy yutuqlarini xam keng namoyish qiladi.

“Bayramning ijtimoiy- siyosiy va madaniy ahamiyat shu bilan belgilanadi, - deb yozadi professor E. V. Sokolov, - u muxim an'analarni qo'llab, insoniyat madaniyatining yutuqlarini mustaxkamlaydi”. bayramlar **darxaqiqat**, xayotning eng diqqatga sazovor elementlari, moddiy va madaniy soxalardagi eng yaxshi tomonlarining ko'rsatkichi xisoblanadi, chunki bayram kuniga bag'ishlab xamma muassasalar, korxonalar va barcha kollektivlar o'zlarining eng yaxshi ish natijalari va erishilgan muvaffaqiyatlar xamda yuksak madaniyatlarini xam namoyish qiladilar. “aynan bayram, - deydi yirik madaniyatshunos olim ”– dunyo madaniyatiga yig'ilgan eng qimmatli boyliklarni o'zida sintezlashtiradi ”. shuning uchun bayram insoniyat madaniyatining eng muxim shakllaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita xam xisoblanadi. bayram jamiyat xayotining tarkibiy qismi bo'lishi bilan bir vaqtda, u ko'pincha maxsus belgilangan kunda ishdan xoli vaqtda nishonlanadi. bayram kuni barcha kundalik tashvishlardan, xar kungi mexnatdan ozod bo'lishi uchun imkoniyat yaratildi. Binobirin, xalqimizda yirik bayramlarni nishonlash uchun maxsus dam olish kunlari belgilab qo'yilgan. (ular yil davomida 8 kunni tashkil etadi.) shuningdek kalendaridagi ko'pgina kasb korlik kunlari va boshqa bayramlar aynan dam olish kunlari yakshanba kunlari nishonlanadi. tadqiqotchi e. v. sokolov barcha dam olish shakllari orasida bayramlarni eng yuqori darajaga ko'targan edi. chunki bayramda dam olish kunlarining eng samarali elementlari mujassamlashadi. ushbu fitkrga qo'shilgan xolda bayram dam olish kunlarining eng oliy va aktiv shakllaridir, degan xulosaga kelish mumkin.

Biroq shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi mexnat bayramlari o'tkaziladigan kun dam olish kuni bo'lmasligi mumkin. “shanbalik ”, kabi tadbirlar o'tkaziladigan kunda xam mexnat, xam bayram qilinadi. Bayram tarbiya sistemasidagi o'ziga xos muxim va eng yirik shakldir. Xalq

san'ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan tadbir bayram xisoblanadi. Bayramshunos olim D. M. Genki: “ ommaviy bayramlar eng kuchli emotsional ta'sir etuvchi vositalarni birlashtirib, umumiy tarbiya sistemasida o'ziga xos ... kulminatsional zvenoni namoyon qiladi ”, deb bejiz ta'kidlamagan edi. Bayramlar xalqning eng yaxshi an'analari , odatlari, axloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi yoshlarni tarbiyalashda, ularning odob – axloqli bo'lishida muxim o'rin tutadi.

Bayramlarni chuqur va xar tomonlama tushunish uchun uning xususiyatlariga xam to'xtalmoq lozim. Chunki bayramlarning xususiyatlari, uning boshqa xayotini xodisalardan ajratib turadigan faqat uning yolg'iz o'zigagina tegishli belgilarni tashkil qiladi. Ommaviy bayramlarning eng asosiy, birinchi xususiyati - bayram xolati (bayram kayfiyati) bilan bog'liqdir. Tashkilotchilar ularning xoxlagan vaqtda bayramni belgilashi yoki uni tashkil qilishi mumkin emas. Bayramni xayotining o'zi belgilab, xalqqa unga nisbatan extiyoj tug'ilganda va bayram kayfiyati vujudga kelgandagina tashkil qilsa bo'ladi. Bayram kayfiyatini vujudga keltiradigan bir necha xollarga murojat qilamiz. qish vaqti xukmronlik qilgan sovuq kunlardan so'ng ob-xavoning isishi, tevarak - atrofning ko'm - ko'k libosga o'ranishi, mevali daraxtlarning gullashi, xullas baxor kelishi barcha kishilarga olam- olam quvonch, shodlik olib keladi. Bu xolatdan xar kim o'zicha zavqlanishi mumkin, albatta. Biroq tabiat go'zalligi va baxor shodiyonasi deyarli xamma odamlar uchun umumiy bo'lgani sababli, uni birgalikda nishonlash extiyoji xam tug'iladi yoki yangi yil bayrami odamlar xoxlagan vaqtda emas, balki tabiat va jamiyat qonunlari asosida o'tkaziladi. chunonchi yilning almashinishi jarayoni shunday kayfiyatni vujudga keltiradiki, unda xar bir kishi o'z xayotining yillik umriga yakun yasaydi, kelgusi yilga yangi rejalar tuzadi, yaxshi niyatlar qiladi. Shuning daqiqaning o'zi xam bayram kayfiyatini vujudga keltiradi yoki paxta planining to'lishi - bu dexqonlarning bir yillik tinimsiz mexnatini

muvaffaqiyati natijasi yoki studentlarning institutni tugallashi - bu to'rt - besh yillik mashaqqatli bilim olishning natijasi. albatta, bunday daqiqualarning barchasi shodiyona, xursandchilik, ya'ni bayram kayfiyatini vujudga keltiradi. Bu esa maxsus bayram uyushtirish uchun zamin yaratadi. odatda bayram qilish uchun maxsus kunlar ajratiladi. Aniqrog'i xalqda bayram qilishga ishtiyoq, bayram xolatini vujudga keltirishi uchun sharoit tug'diriladi, lekin bu xolatni xali bayram deyish mumkin emas. kalendarni varaqlar ekanmiz, unda juda ko'p maxsus bor ekanligini ko'ramiz. Biroq bu kabi kunlarni xali to'la ma'nodagi bayram kuni deb bo'lmaydi. Bu faqat muayyan yoki kasbga bag'ishlab oldindan belgilangan vaqt - maxsus kun, xolos. Bu kunlarning bayramga aylanishi uchun odamlarda yoki muayyan guruxlarda, unga nisbatan extiyoj, uni nishonlash uchun maxsus ko'tarinki kayfiyat bo'lishi lozim va bular asosida bayram tashkil qilsa bo'ladi.

Bayram tashkilotchilari esa kishilar o'rtasida vujudga kelgan bayram kayfiyatidan foydalanib, unga mos shakl va usul topib, tadbirlar tayyorlab, bayramni vujudga keltirishi mumkin. " xalq ommasining bayramga intilishi, unga tayyorlanishi bu xali bayram emas, - deb uqtiradi D .M. Genkin, - bu intilishni oqilona, go'zal, nozik qilib, uyushtirib tashkil etish kerak ". darxaqiqat, agar bayram maxsus uyushtirilsayu, shodiyona xolat bunyod etilmasa, unda xalq o'zining fikrlari, tuyg'ulari va kayfiyatini bayon qilishi uchun yaratmasa, u oddiy kundek o'tishi mumkin. Xaqiqiy bayram unga tayyorgarlik ko'rilganda, uni nishonlash yo'li, shakli topilganda va maxsus tashkil qilingandagini sodir bo'ladi. Xullas, bayramlar biror asos yoki sababsiz vujudga kelmaydi. Xaqiqiy bayram ommada unga nisbatan extiyoj tug'ilganda va u maxsus uyushtirilganda sodir bo'ladi.

Bayramlarning ikkinchi xususiyati - bu ommaning bayram ishtirokchisiga aylanishidir. Bayram faqat xalq uchun uyushtiriladi va uning ishtirokida o'tadi. Barcha san'at maskanlarida - teatr, konsert zali. kino va telvizorda ijrochilar va axoli o'rtasida ko'zga ko'rinmas "devor" mavjud

bo'lib, omma faqat tomashtabin rolini bajaradigan bo'lsa bayramlar esa xalqning faol ishtiroki bilan o'tadi. bayramda xalq vakillari o'zlarining xavaskorligi va tashabbuskorligini namoyish qiladi va nishonlayotgan voqeaga o'z fikri va munosabatini bildirishadi.

Ma'lumki, bayramlarda xammani bir xil darajada aktivlashtirib, qatnashtirib bo'lmaydi. Bayramning aktiv qatnashuvchilari - bayram programmasida ishtirok etadigan boshqaruvchilar, xalq talantlari, badiiy xavaskorlik kollektivlarining a'zolari kabilardir. bayram ishtirokchilarini aktivlashtirish uchun ular o'rtasida ommaviy o'yinlar, qo'shiqlar, viktoriollar, qo'rik - konkurslar, sport musobaqalari uyushtiriladi. xullas, bayramda har bir kishi o'z ijodi va qobiliyatini namoyish qilishi mumkin.

Bayramning uchunchi xususiyati shundan iboratki u sof xolda uchramaydi. albatta u bir yoki bir necha (kompleks) tadbirlarning sintezidan tashkil topadi. agar uning asosida tadbirlar yotmasa, u uyushtirilgan xolatida iborat bo'lib qoladi.

Xaqiqiy bayram – bu bayram xolatini tashkil etish, uni madaniy – badiiy jihatdan bezash natijasida vujudga keladi.

An'analar, marosimlar, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar. karnavallar, namoyishlar, xalq o'yinlari bayramning asosiy komponentlarini tashkil etadi. Ommaviy bayramlarni bu kabi tadbirlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Bayramni tashkil qilish eng avvalo nishonlayotgan voqealarning mohiyati va umumiy mavzusidan kelib chiqib, bularga mos shakllarni (uni uyushtirish tadbirlarini) topish demakdir.

Bayramlarni uyushtirishda deyarli barcha muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, kollektivlar qatnashadi. Bayram kayfiyatini yaratish va uni uyushtirishda ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie, matbuot, san'at muassasalari), teatr, kinoteatr, filarmoniya, konsert tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy muassasalar (klub, istiroxat bog'i) , sport tashkilotlari, jamoat tashkilotlari kabilar muxim rol o'ynaydi. ularning har biri o'z

imkoniyatlaridan kelib chiqib , bayramga bag'ishlangan eng yaxshi va eng yuqori saviyadagi faoliyatni namoyon qiladilar. Davlat organlari bayramlarni, namoyish, tantanali majlis va boshqa bayram tadbirlarini uyushtirishga umumiy raxbarlik qiladi. Bayramni uyushtirish masalalariga joylarda tuzilgan jamoatchilik kengashlari faol yordam beradi.

Bayram kayfiyatini yaratish va uni uyushtirish ishida ommaviy axborot vositalarining roli kattadir. gazeta maqolalari, radio eshittirishlari va telvedinie ko'rsatuvlari boshqa kunlargaqaraganda bayram daqiqialarini yuksak saviyada uyushtirish, bayram mazmunini ochish va tantanavorlik xolatini yaratishga xizmat qiladi.

Bayram kuni san'at muassasalari (teatr kinoteatr, konsert tashkilotlari) o'zlarining eng yaxshi (mavzusiga mos) spektaklari, filmlari va bayram konsertlarini namoyish qilishadi.

O'zbek xalq bayramlarida mavjud bo'lgan an'analarga zamonaviy namoyishning yangi elementlari xam qo'shilmoqda. masalan, "navro'z" bayramining razmiy obrazi baxor bekasi- baxorxonimning dugonalari bilan qishloq ko'chalarini aylanishi va ular orqasidan axolining ergashishini o'ziga xos go'zal namoyish desa bo'ladi.

Vaqt o'tgan va xayot o'zgargan sari ularning soni xam, turlari xam ko'paymoqda. biroq, "songa doim sifat kerak " deganlaridek, bayramlar soni ko'payishi, ularning sifpatini oshirishni taqozo qilmoqda. o'zbekiston bayramlarini va bayram xolatini vujudga keltiruvchi marosimlarni tadqiq qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, xozirgi paytda respublikamizda mavjud bo'lgan va tashkil qilinadigan bayramlarning soni 100 dan ortiq ekan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ularning barchasi respublikamizning xamma joyida nishonlanadi, deyish to'g'ri bo'lmas edi. Ularning birinchisi asosiy guruxi (ular 10 dan ortiq) mamlakat va respublikamizning deyarli barcha joylarida nishonlanadi yoki nishonlanishi kerak. Ularga yangi yil bayrami, "navro'z bayrami, xotin qizlar kuni , xalqaro birdamlik bayrami, mustaqillik kuni, konstitutsiya kuni va xakazolar kiradi. ikkinchi gurux bayramlar (ular

30 dan ortiq) respublikamizning ko'pgina joylarida (biroq, xamma yerda emas) nishonlanadi, tabiat bayramlari (gul bayrami, yosh tabiat sevarlar bayramlari kabilar) , madaniyatga oid bayramlar (kitob bayrami, san'at bayrami kabilar) , sport bayramlariva xokazolar kiradi. uchinchilari asosan – muayyan kasb egalari tomonidan nishonlanadi. masalan, qishloq xo'jaligi xodimlari, quruvchilar, o'qituvchilar va xokazo kasb egalari kuni.

Xozirgi kunlarga kelib bayramlar tasnifiga oid qarashlar orasida yirik nazariyotchilardan biri D. M. Genkin taxlil qilgan klassifikasiya diqqatga sazovordir. u ko'rsatgan klassifikasiyada bayramlarning o'tkazilish masshtabi (doirasi) asosiy belgi sifatida qabul qilinib, quyidagi turlarga bo'lingan:

1. Xalqaro va umumxalq miqiyosidagi bayramlar (bunga xalqaro, shu jumladan, mamlakatimizda tashkil qilinadigan bayramlar kiradi).

2. Milliy bayramlar (qardosh xalqlar bayramlari).

3. Kollektiv, oila va shaxs xayotiga oid bayramlar.

Mazkur klassifikasiyaning yanada takomillashtirilgan variantini N.V.Semenova (krotova tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. u bayramlarni mazmuni asosida quyidagi shakllarga bo'ladi: mexnat, fuqoro, tabiat va madaniyat bayramlari. zamonaviy bayramlar klassifikasiyasini respublikamizda chop etilgan adabiyotlarda xam uchratish mumkin. chunonchi, "yangi turmush - yangi an'analar" nomli to'plamda barcha xalqlarning an'analari bilan chambarchas bog'langan o'zbekiston bayramlari xarakteri va mazmuniga qarab shartli ravishda uch kategoriyaga ajratilgan:

- oilaviy -maishiy marosimlar: bolalarning tug'ilishiga, nikox to'yiga, nom qo'yilishiga va shu kabilarga atalgan bayramlar:
- ijtimoiy ishlab chiqarish bayramari: ishchilar va kolxozchilar safiga qabul qilish, pasport topshirish, armiya safiga kuzatish, yubileylarga, pensiyaga chiqarish xamda mexnat va urush veteranlarini sharaflash va shu kabilarga atalgan bayram va marosimlar:

- umumxalq bayramlari: xosil bayrami, navro'z bayrami, lola sayli, qovun sayli va u yoki bu xalqning turmush va mehnat xususiyatlarini aks ettiruvchi boshqa ko'pgina bayramlar.

B. Sarimsoqov fol'klorist nuqtai nazaridan an'anaviy o'zbek marosimlarini yil fasllari (qish, baxor, yoz, kuz) asosida turkumlarga ajratib tasnif qiladi.

Shunday qilib yuqorida keltirilgan klassifikasiyalar shuni ko'rsatadiki, bayramlar turli nuqtai nazardan xar xil asos bilan, muayyan belgilar zaminida turlicha klassifikasiya qilinadi. ravshanki, ular ichida umumlashtirilgan klassifikasiyani topish qiyin. Balki bu tasniflarning kelajakda yanada mukammalroq turlari topilar. Biroq xozircha bayramlarni mavzusi va mazmuniga qarab turkumlash ko'proq samara berishi mumkin.

2.2. Umumtaʼlim maktablarida tadbirlarni mumtoz musiqa bilan bogʻliqlik xususiyatlari

“Biz milliy maʼnaviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini oʻz oldimizga asosiy masala qilib qoʻyar ekanmiz, bugungi kunda maʼnaviyatimizni shakllantiradigan va unga taʼsir oʻtkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday oʻrin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq boʻladi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning maʼnaviyatini uning tarixi, oʻziga xos urf-odat va anʼanalari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib boʻlmaydi. Bu borada, tabiiyki, maʼnaviy meros, madaniy boyliklar, koʻhna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillaridan biri boʻlib xizmat qiladi”. Shu maʼnoda Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida ifodalangan sharqona maʼnaviyat asoslaridan foydalanish xususan, ularning musiqa va uning tarbiyaviy ahamiyatga oid taʼlimotlari, gʻoyalari va qarashlaridan zamonaviy talqinda foydalanish oʻquvchilar tafakkurida milliy musiqaga oid tushunchalarni shakllantirishda muhim manba vazifasini oʻtaydi.

Shu oʻrinda Abu Nasr Forobiyning musiqa haqidagi fikrlari eʼtiborga loyiqdir. Forobiy musiqani tarbiyaviy fan deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: “Bu fan shu maʼnoda foydaliki, kimning feʼl-atvori muvozanatni yoʻqotgan boʻlsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga etkazadi va muvozanatda boʻlmaganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu tanning sogʻligi uchun ham foydalidir, chunki tan kasalga uchrasa, ruh ham soʻliydi, ojizlashadi, tan qiyinchilikka uchrasa, ruh ham azobga uchraydi. Shu sababli tanning davolanishi ruxni davolash orqali amalga oshiriladi, ovozlarning taʼsiri ostida ruhiy quvvatlar oʻz substansiyasiga moslashadi va tartibga, muvozanatga keladi”.

Musiqa madaniyati millatimiz maʼnaviy hayotida ulkan oʻrinni egallagan. Oʻzbek milliy musiqa sanʼatining janrlarining eng katta qismi Maqomdir. Maqom nima Salobatli maqom turkumlarida qanday gʻoya yoki taʼlimotlar ifoda etilgan Nima sababdan maqom sanʼati koʻp asrlardan buyon oʻz mohiyati, demakki, badiiy qiymatini yoʻqotmasdan kelmoqdah Bu kabi savollar

aslida tubdan serqirra va bir-biriga tutash madaniy-tarixiy-nazariy masalalar bilan uzviy bog`lanib ketganki, natijada ularga bir yo`la yoki shu damdayoq bir jihatli javob berish mushkuldir. Shu bois qayd etilgan savollarimizga bu san`at salsalalaridan javob axtarish maqsadga muvofiq ko`rinadi. Zotan “har qanday musiqiy madaniyatni nafaqat moddiy-akustik fenomen tarzida, balki eng avvalo ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida tushunmoq zarur”.

Maqomlar tarixini o`zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtai nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy ohang qatlamlarini o`rganish tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda hozirda bizga ma`lum tom ma`nodagi maqomlar bo`lmagan albatta. Zotan bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma`lum bosqichi bilan shartlanganki, bu (ikkinchi davr) xususida o`z o`rnida mufassalroq to`xtamga o`tamiz.

Ta`kid joizki, maqom kuy ohanglarini qadimiy qatlamlarini o`rganishga ko`mak bo`luvchi maxsus musiqiy risolalar bo`lmasa-da, ammo bu borada eng asosiy va muhim manbaalar bizning davrga qadar yetib kelgan. U ham bo`lsa ajdodlarimizdan ulkan ma`naviy meros qolgan “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Farg`ona-Toshkent maqom yo`llari”dir. Maqom kuylarining xususiy “til” tuzilish (sintaksis) qurilmalarini malakali idrok va tahlil eta olish asosida ular tarkibida uyg`unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olish imkoniyati mavjud. Ayni paytda bizga ma`lum rivoyatlar mazmunidan ham zarur xulosalar chiqarish mumkin.

Shu asnoda O`zbekistonda mavjud maqomlar (Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg`ona-Toshkent maqom yo`llari) musiqasiga nazar tashlar ekanmiz, uning har biri o`zgacha tarovatli kuy-navolari negizida eng mukammal darajada uyushgan parda (tovush) tizilmalari borligi e`tiborimizni o`ziga jalb qiladi. 7 ta asosiy pardalari o`zaro uyg`un, ohangdosh tovushlar nisbatiga qurilgan bu nag`amot uyushmalari kim tomonidan va qachon ijod etilgan. Bu borada yuritilgan mantiqiy fikr-mulohazalar asosida ularning shakllanish vaqtini keyingi davrlarga, ya`ni musiqa san`ati taraqqiy ergan asrlarga taaluqli deb

o`ylash mumkin. Biroq jahon musiqa tarixi bunday xulosani inkor etadi. Chunki, maqom pardalariga o`xshash yeri asosiy pog`onali (pardali) tovush tizimlari Sharq-G`arb musiqa madaniyatiga juda qadim zamonlardan ma`lumdir. Xususan, qadimgi yunonlar bu kabi parda uyushmalarining bir necha turlarini bilibgina qolmay, balki ularning inson tarbiyasida alohida muhim o`rni borligini ham ta`kidlaganlar. Donishmand Fisog`urs (Pifagor) esa mukammal pardalarning inson ruhiga favqulodda ta`siri sabablarini ilmiy bilish maqsadida ularni matematik usullar bilan o`rganib chiqqan (bu usullar keyinchalik o`rta asr Sharq musiqashunos olimlari tomonidan ham qo`llangan). Pirovardida ularning tarkibida yetarli me`yorda uyg`un (ohangdosh) tovushlar nisbati (oktava, kvinta, kvarta) borligini hamda ularning sonlardagi ifodasi dastlabgi to`rtb raqamga muvofiq kelishini (oktava-2:1; kvinta-3:2; kvarta-4:3) aniqlangan.

Demak, mukammal uyushgan parda tizimlari dastlab ilmiy-nazariy asosda ham ijod etilmagan, balki ularda mavjud go`zal ohang uyg`unliklari ilmiy asosda kashf etilgan edi.

Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko`ra maqomlarning eng qadimiy namunalari payg`ambarlardan meros qolgan. Xususan, XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning “Tuhfatus-surur” nomli risolasida xabar berishicha, avvaliga yetti payg`ambar nomlari bilan bog`liq yettita maqom bo`lgan. Bunda “Rost”maqomi – Odam alayhissalomdan, “Ushshoq” –Nuh alayhissalomdan, “Navo”–Dovud alayhissalimdan, “Hijoz”–Ayub alayhissalomdan, “Husayniy”–Yoqub alayhissalomdan va “Rahoviy” – Muhammad sallallohu alayhi vassalamdan meros qolganligi haqqidagi rivoyatlar bayon etiladi. Muallif bu axborotni yetkazishda Xo`ja Abdulqodir ibn Marog`iy, xo`ja Safiuddin ibn Abdulmo`min, Sulton Uvays Jaloir kabi juda obro`li ustozlar fikriga tayanganligini ham ma`lum qiladi.

Shuni aytish kerakki maqomlar musiqasiga oid “maqom” atamasidan avval “yo`l” ma`nosini anglatuvchi “roh”, “tariqa”, “ravish” kabi atamalar qo`llanib kelganligini Darvish Ali Changiy bayon etgan ma`lumotlarni quvvatlashga

xizmat qilishi mumkin. Olloh taolloning yer yuzidagi elchilari boʻlgan paygʻambarlarning insonlarga chinakam baxt-saodatga erishish yoʻllarini koʻrsatganlar. Ulardan qolgan maʼnaviy taʼlimot namunalari jamoa-qavmlar orasida alohida eʼzozlanib, avloddan-avlodga goʻzal ruhiy meros sifatida oʻtib kelgan. Inson tinglovi va idroki uchun eng maʼqul va manzur boʻlgan mukammal pardalar ham dastlab shu meros negizida (yoki uni nazariy jihatdan oʻrganish asnosida) hosil etilib, soʻngra shu (parda) “yoʻllar” asosida turli kuylar rivojlantirilgan (yoki kuylarning yangi namunalari ijod etilgan) boʻlsa kerak.

Shunday qilib, qadimgi dunyodan meros kelayotgan mukammal parda uyushmalari keyinchalik maqom tizimlari yuzaga kelishida, shuningdek, bastakorlar-u, xalq musiqa ijodiyoti rivojida ham muhim poydevor yangligʻ ahamiyat kasb etgan.

Maqomlarda mavjud yana bir musiqiy qatlamni xalq ogʻzaki musiqa ijodiyotining koʻhna namunalari tashkil etadi. Hayratlanarli tomoni shundaki, maqomlarda xalq musiqasining hatto eng qadimiy namunalariga oid “izlari” ham saqlangan. Xususan bu izlarni bizgacha yetib kelgan Navroʻzi Ajam, Navroʻzi Xoro, Navroʻzi Sabo nomli maqom asarlarida koʻramiz. Shundayki, bu asarlarning kuy negizlarida mutaxassis olimlar tomonidan “xalq kuyining eng qadimiy namunasi” (“birlamchi chiziq”—G. Shenker) tarzida tasnif etilgan quyi oqim kuy ohanglari yaqqol namoyon boʻladi. Bu hol bejiz emas, albatta. Maʼlumki, koʻpgina Sharq xalqlari uzoq oʻtmishdan buyon Navroʻz bayramini keng nishonlab, shu munosabat bilan maʼlum kuy va ashilalarni ijro etib kelganlar. Oʻziga xos mavsumiy marosim musiqasi sifatida xalq anʼanaviy hayotidan muqim oʻrin olgan bu toifa kuylar keyinchalik maqom tizimlariga kiritilib, oʻzining yuksak rivojlangan koʻrinishlarga ega boʻlganligi haqiqatga yaqin boʻlsa kerak.

Maqom manbalari qatorida “goh” (yaʼni Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh shaklidagi) kuy tizimlari ham eʼtiborga molikdir. Aksariyat olimlar bu toifa kuylar negizi qadimiy kitoblarni maʼlum ohanglarda oʻqish anʼanasiga dahldorligini, shu jumladan “Avesto” dagi “got” madhiyalariga borib taqalishini

faraz qiladilar. Bu o`rinda Avestodagi “Gatheha” so`zi keyinchalik daroy (forsiy) tiliga “Gah” shaklida o`tganligi va yana qator holatalar inobatga olinadi. Bizga ma`lum “goh” kuylarining tahlili esa bu namunalarning ildizlari faraz etilayotgan davralardan-da qadimiyroq ekanligini ko`rsatadi. Xususan, Farg`ona-Toshkent maqomlaridagi Dugoh-Husayniy I kuyi negizida ikki tayanch pardali ohang tizilmasi, Segoh cholg`u kuyida, shuningdek, Shashmaqomning Tasnifi Segoh, Xorazm Segoh maqomining Tani maqom qisimlarida esa uch tayanch pardali ohang tizilmalari borligi ayon bo`ladi. Etnomusiqashunos olimlarning qo`lga kiritgan so`nggi yutuqlaridan ma`lumki, bu kabi tayanch tovushli kuy namunalari xalq musiqiy tafakkurining dastlabgi kurtaklaridir.

Albatta, maqomlarda qadimiylikka mansub qanchadan-qancha musiqiy yodgorliklarning o`rni topilmasin, biroq ularni asl holiday qayta “jonlanadi”, sadolanadi deb bo`lmaydi. Zero maqomlarda “saqlangan” musiqiy yodgorliklar, garchand ularning muhim izlari saqlanib qolgan bo`lsa-da, o`zlarining yuksak rivojlangan holatlarida namoyon bo`ladi.

Demak, maqomlarning eng qadimiy tarixi aslida tom ma`nodagi maqomlar tarixi bo`lmay, balki ko`proq ularning kelib chiqish manbalari bo`lgan ko`hna davr musiqa kuy qatlamlariga dahldordir. Xuddi ana shu turli musiqa namunalari (demakki, turli uslubli kuy shakllari) asosida usluban badiiy yaxlit maqom tizimlarining shakllanish davrlaridan e`tiboran bevosita mumtoz maqomlar tarixi ham boshlanadi.

Dastlabgi maqom tizimlari qachon va qanday shaklda bo`lganligi xususida aniq ma`lumotlarga ega emasmiz. Bu borada Sosoniylar saroyida (shoh Xosrav Parviz davroda – 590-628yil) xizmat qilgan mashhur musiqachi – Borbad (vaf.627 y.) ijodiy merosi, xususan unga nisbat beriladigan “7 Hisravoniy”tizimi diqqatni o`ziga jalb etadi. Musiqashunos olimlar “7 Hisravoniy” tizimi keyinchalik maqomot tizimlari yuzaga kelishida asos bo`lganligi yoki har holda bu tizimning maqomlar shakllanishiga ma`lum ta`siri haqida taxminlarga boradilar. Ammo bu masalada hali bir to`xtamga erishilmaganligini ham qayd etish kerak. Mutaxassislar salobatli maqom tizimlarining yuzaga kelishi kasbiy

musiqa qatlami (ijodkorlik, ijrochilik) taraqqiyotining ma'lum tarixiy bosqichi, shuningdek, rivojlangan musiqa ilmi, falsafa va matematika fanlarining mavjudligi, qolaversa buning uchun zarur shahar madaniy muhiti kabi omillar bilan shartlanganligini alohida ta'kidlaydilar. Xususan, atoqli musiqashunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori Ishoq Rajabovning bu boradagi malakali ko'rsatmalari e'tiborlidir: "Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqaviy-estetik qarashlari barkamol bo'lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan. Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Sharq musiqa olimlari musiqani tibbiyot, falsafa va matematika fanlari bilan bog'liq ekanligini uqtirib o'tganlar". Professor Ravshan Yunusovning ta'kidlashicha: "Sharq maqomoti ko'hna, ancha murakkab falsafiy-estetik, musiqiy-nazariy hamda amaliy asoslarga egadir".

Shuni aytish kerakki, sharq musulmon olamida maqom tizimlari yuzaga kelishi uchun zarur omillar IX-X asrlarga kelib jamul-jam bo'lgan edi. Zero, aynan shu davrlarda aniq fanlar rivojlandi, vatandoshimiz Abu Nasr Farobiyning (871-950) musiqashunoslikdagi buyuk xizmatlari o'laroq Sharq musiqa ilmiga asos solindi, kasbiy musiqa amaliyoti yangi bosqichga yuksaldi, shuningdek diniy-falsafiy ta'limot va qarashlar yoyila boshladi. Ana shu bevosita va bilvosita omillar ta'sirio'laroq o'rta asr Sharqining yirik (markaziy) shaharlarida o'n ikki maqom tizimi yuzaga kelgan edi. Mazkur tizim tasnifoti dastlab Safiuddin Urmaviy va Qutbiddin Sheroziylarning musiqa ilmiga doir asarlarida ishlab chiqilgan bo'lib, keyingi asrlarda Abdulqodir Marog'iy (XIV), Abdurahmon Jomiy, Zaynulobidin Husayniy (XV), Najmiddin Kavkabi (XVI), Darvishali Changiy (XVI-XVII) kabi ustoz amaliyotchi va nazoratchi olimlar tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

O'n ikki maqom tizimi bir necha tarkibiy qisimlardan tashkil topgan bo'lib, ularning asosiylari 12 maqom, 6 ovoza va 24 sho'balardan iborat bo'lgan. Bunda qadimdan kelayotgan yetti bosqichli mukammal parda tizilmalari 12 maqom guruhiga, ko'hna xalq kuy, aytimlari (Navro'zi Ajam, Dugoh, Segoh va b.) esa

sho`balar toifasiga tasnif etilgan edi. Ushbu tizim bilan bog`liq qator masalalar, shu jumladan tarkibiy qismlarning tizim doirasidagi alohida vazifasi hamda musiqa amaliyotida bevosita o`zaro bog`lanish jihatlari hozirgacha jumboq bo`lib kelmoqda.

O`n ikki maqom tizimining bizning diyorimizda uzul-kesil qaror topishi va uning dastlabgi mumtoz ko`rinishlari Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari – Temuriylar davriga to`g`ri keladi. Bu o`rinda eng avvalo hazrat Sohibqironning xizmatlarini alohida ta`kidlamoq kerak. Yuqorida aytilganidek, maqom tizimlarini yuzaga keltirish uchun eng avvalo ularning ilmiy-nazariy asoslarini puxta ishlab chiqish zarur edi. Tabiiyki, ushbu masalaning yechimi musiqa ilmi, ya`ni musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan. Ammo bu soha olimlari nihoyatda ozchilikni tashkil etib, buning ustiga ularning eng yuqori malakali usrozlari xorijiy musulmon mamlakatlarida istiqomat qilishar edi. Hazrat Sohibqironning bevosita say`-harakatlari ila bu ilm ustozlari turli mamlakatlardan bizning diyorimizga keltirilib, ularning faoliyat ko`rsatishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berilgan edi. Alalxusus Ibn Arabshohning “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” nomli kitobida qayd qilinishicha, Samarqandga keltirilganlar qatorida mashhur musiqachi va musiqa ilmida ustoz “Abdulqodir al-Marog`iy va uning o`g`li Safiuddin, kuyovi Nasriyn, Qutb al-Mousiliy, Ardasher al-Changiy va boshqalar” bo`lgan. Muhimi bu ustoz-san`atkorlarning ilmiy-amaliy faoliyat ko`rsatishlari uchun Sohibqiron saroyida zarur shart-sharoit yaratib berilgan edi. Professor Abdurauf Fitratning “O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927) risolasida qayd etilgan quyidagi satrlar ham shunga ishora etadi: “Temurning bayrog`i bilan har tomondan keltirilgan ixtisoschi olimlarning g`ayratlari bilan bu san`at (ya`ni o`n ikki maqom-O.I.)birdan jonlandi, oyoqqa bosdi. Islom sharqining har tomonidan keltirilgan cholg`uchilar bizning bu kungi klassik musiqamizning yuksalishiga, ko`tarilishiga xizmat qildilar. Oz zamonda yerlilardan ulug` musiqiyshunoslar yetishdilar”.

Demak o`n ikki maqom tizimi ustoz kasbiy musiqachi va olimlarning o`tmish va o`z zamonlari musiqa boyliklarini yangi davr mumtoz talablari

kesimida badiiy yaxlit holga keltirish ustida uzoq yillar olib borgan ilmiy-ijodiy faoliyatlarining samarasi o'laroq yuzaga kelgan edi.

O'n ikki maqom xususida so'z yuritilganda, ularda jamlangan turli tarixiy davr musiqa yodgorliklari qanday ustuvor g'oya va ma'nolar tizimi asosida o'zaro birlashib, mutanosib holga kelganligi masalasi ham alohida qiziqish uyg'otadi. Bu mavzuni muhobasa etganda o'sha davr siyosiy-ijtimoiy-madaniy hayotida ustivor mafkura, saroy "madaniy muhiti", undagi yetakchi falsafiy qarashlardan tortib to maqomlar musiqasida muhim qaror topgan shakl-shamoyillar, ularning ma'nolar tizimi inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu boradagi izlanishlar natijasida maqomlarning ma'nolar tizimi o'zagini "komil inson" (tasavvif) ta'limoti g'oyalari tashkil etishi ma'lum bo'lmoqda. Bunga bir qator bilvosita va bevosita dalillarni keltirish mumkin. Avvalambor shuni aytish kerakki, o'tmishda maqomlarning ilmu-amali asosan tariqat doirasida bo'lgan so'fiylar yoki har holda tasavvufga aloqador (tasavvuf ta'limoti g'oyalarini qabul etgan mutasavvuf) shaxslar shug'ullanib kelganlar. "Musiqa – rih ozig'idir", tarzidagi tasavvufilar ham asosan tasavvuf shayxul-mashoixlari tomonidan berilgan. Ayni paytda kelib chiqishi arabcha bo'lgan "maqom" atamasi va uning zahirida anglashiladigan "martaba", "joy", "manzilgoh", "mavqe'", "daraja" kabi ma'nolar ko'p jihatdan "Yassaviya" tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviy hikmatlari orqali turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan edi. Bu atamaning hikmatlar matnida ko'plab iboralarda ("ishq maqomi", "ajab maqom", "ul maqomda oshiq qullar javlon qilur" va h.k.) kelishi shunday fikrga ma'lum asos beradi. "Maqom" atamasining musiqaga joriy etila boshlanishi ham ko'p jihatdan tasavvuf ta'limotining bu davrlarga kelib islom olamida keng yoyilganligi (bizning diyorimizda, jumladan, "Yassaviya", "Hojagon-Naqshbandiya" va "Kubroviya" tariqatlarining ijtimoiy nufuzi baland bo'lganligi), Sohibqiron Amir Temur va temuriylar hukumronligi davrida esa qariyb rasmiy mafkura mavqeiga qadar ko'tarilib, buning pirovardida saroy san'atiga, xususan mumtoz kasbiy musiqa sohasiga ko'rsatgan kuchli g'oyaviy ta'siri bilan izohlanishi mumkin. Maqom so'zi tasavvuf istilohida eng muhim tushunchalardan biri bo'lib, uning

vositasida, jumladan, ma'naviy kamolot yo'li(tariqat)ning yettita asosiy bosqichlari (bekatlari, darajalari) anglashiladi. Demak, "maqom" deganda ma'lum harakat jarayoni ham nazarda tutilib, bu jarayon mazmunini solik(yo'lovchi, izlanuvchi murid)ning suluk (yo'l) bosqichlari bo'ylab safari va shu asnoda o'z maqsadi sari ma'naviy yuksalib borishi tashkil etadi. Shuni aytish kerakki, O'n ikki maqom tizimi doirasida "komil inson" g'oyalari serjihat ko'rinishlar kasb etadi. Jumladan, solikning qalbidagi ishq o'ti bilan mahbubi tomon ruhiy safari ushbu tizimdagi 12 maqom "zanjiriga" ham botiniy anglashiladi.

Bunda:

"Ushshoq" maqomi – so'fiyona ishq, Tangri Taologa bo'lgan chin oshiqlikni,

"Navo" maqomi – ishq o'tida dard (Havo) chekishni,

"Busalik" maqomi (Abu Salik-Ahd otasiga ishora) oshiqning tariqat yo'liga kirishga "ahd bog'lashini" bildiradi,. Keyingi yetti maqom-"Rost", "Husayniy", "Hijoz", "Rohaviy", "Zangula", "Iroq", va "Isfahon" nomlari botiniy mazmunida oshiqning tariqat yo'lida ruhiy yuksalib borishi ulug' haj safariga nozik tashbeh etilgan.

Jumladan:

"Rost" (to'g'ri yo'l) – tariqat yo'lini,

"Husayniy"-piru-murshid(yo'l boshchi)ni,

"Hijoz" –Makkai Mukarrama va Madinay Munavvara shaharlari joylashgan sarhad bo'lib, yo'lning asosiy maqsad timsolini,

"Rohaviy" (roh-yo'l),

"Zangula" ("tuya bo'yniga ilinadigan qo'ng'iroq"),

"Iroq" va "Isfahon" –yo'l harakati va manzillarining "zabt" etilishini bildiradi. Zero, haj yo'lida Iroq cho'llaridan o'tilgan, Isfahon esa ana shu maqsadga yaqin joylashgan shaharlardan birining nomi.

So'nggi ikki maqom "Kuchak" (ya'ni kichik) va "Buzruk" nomlari nisbatida so'fiylarning kichik (mikro) va katta (makro) olamlarning o'zaro

uyg`unligi haqidagi qarashlari o`z aksini topgan, deyish mumkin. E`tiborli tomoni shundaki, O`n ikki maqom nomlari tasavvuf adabiyotida ham ko`proq “yo`l” safari ma`nolarini ifoda etishda qo`llanib kelingan.

Mana shulardan ayrimlari:

Gar Sifohonda Navo topmasang, ey yor-i Buzurg,
Qilg`asam, az-mi Iroq aylab ohang-i Hijoz.

(Hofiz Xorazmiy).

Lutfiy, Hiriya qolmadi she`ringga mushtariy,
Azmi Hijoz qilki, maqoming Iroq emish.

(Lutfiy).

Ey Navoiy, sen dog`i qilsang tama` sayri Hijoz,
Qil Iroq ohangi, tark aylab Xuroson men kebi.

(Navoiy).

Ushbu misralar mazmunida haj safariga bo`lgan intilish O`n ikki maqom tizimiga mansub nomlar (Iroq, Hijoz, Isfahon, Navo, Buzruk) vositasida o`zining nozik ifodasini topganini ko`ramiz. Bu intilishning botiniy ma`nosida esa haqiqat va ma`rifatga olib boruvchi ma`naviy yo`l safari anglashiladi. Ahuningdek, Hajmiddin Kavkabiyning “Kulliyoti Kavabiy” asarida ham 12 maqom nomlari vositasida yo`l safariga ishoralar bor. Kulliyot shunday misralar bilan boshlanadi:

“Zi rohi Rost agar ohang mekuni ba Hijoz,
Zi Isfahon Guzare jonibi Iroq andoz,
Ba noqa Zangula dar pardai Rahoviy band,
Ba Busalik Husayniy - sifat baror ovoz”.

Mazmuni: Gar “To`g`ri” yo`ldan “Hijoz” tomon boqmoqchi bo`lsang ,
“Isfahon” dan o`tib, yo`lingni “Iroq” tomon sol. Tuyaga “Qo`ng`iroq” osginu, uni
“Yo`l” manzillariga band et. “Busalik”dan “Husayniy”dek nola ovozini chiqar
(ya`ni, solikning tariqat manzillarida piru-murshid darajasiga qadar yuksalishi
nazarda tutiladi).

Yuqorida keltirilgan baytlar mazmuni o`laroq maqomlar musiqasida ham tasavvuf g`oyalari in`ikos etilganligini fahmlash mumkin. Chunki she`riy

misralarda namoyon boʻlgan bosh qahramon-oshiqning Iroq, Hijoz kabi maqomlarni tinglashga ruhiy ehtiyoji borligi bejiz emas albatta. Zero bu maqomlarda inson (qalb) tinglovi va idroki uchun juda maʼqul boʻlgan mukammal parda uyushmalari va ularda maʼlum uslubda rivojlanuvchi kuy tizimlari borki, ular oshiq ruhini sururli vajd kechinmalari sari yuksalishiga quvvat beruvchi oziqa boʻlishi mumkin. Aslida ana shu kabi maqomlarning yeti asosiy pardasi va ular asosida (Dugoh, Segoh, Chorgoh ba bosh.) koʻhna kuy tizimlarining quyidan yuqoriga qarab bosqichma bosqich (I, II, III, IV va h.k.) rivojlanib, pirovardida yangi sifatlar kashf etish uslubi tariqat manzillariga xos jarayonlarning badiiy aksi tarzida shakllangan boʻlsa kerak. Har holda Oʻn ikki maqom tizimini bizgacha “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari”da yetib kelgan namunalarining qiyosiy tahlili shu kabi xulosalarga ham asos boʻlmoqda. Bunga Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllaridagi “Dugoh”, “Segoh”, “Chorgoh” nomli namunalar yaqqol misol boʻla oladi. Shundayki, dastlab juda oddiy shakllarda boʻlgan goh kuy tizimlari Oʻn ikki maqom tizimining shoʻbalari guruhidan oʻrin olgan boʻlib, ularni mumtoz talablar darajasida rivoj toptirish maqsadida har biriga alohida-alohida mukammal parda uyushmalari biriktirilgan edi.

Shunga binoan, Dugoh shoʻbasi Husayniy maqomida, Segoh shoʻbasi Hijoz maqomida, Chorgoh shoʻbasi Zangula maqom pardalarida bayon etilib rivojlantirilgan (N. Kavkabiy tasnifi). Buning pirovardida esa shoʻbalarning biriktirilgan maqom pardalariga tabiiy singib kerish jarayoni rʻoy bergan. Bunga quyidagi misolni dalil keltirish mumkin. Xorazm maqomlaridan oʻrin olgan “Maqomi Segoh” aytim yoʻlida dastlab uch tovushdan iborat boʻlgan Segoh kuyohang qurilmasi “re” pardasidan boshlab birin-ketin yettita asosiy bosqichlarni zabt etadi. Toʻgʻri, kuy oqimi vaqti-vaqti bilan “zabt” etilgan bosqichlarga tʻolqinsimon harakatlar ila qaytib, ularni takrorlab turadiki, bu hol umuman musiqaning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllaridan “Segoh” aytim yʻolida ham shu kabi musiqiy jarayonlar yuzaga keladi. Tayanch bosqichlari oʻrnida hozir boʻlgan tovishlar uyushmasini Oʻn ikki

maqom pardalariga qiyosiy o`rganilganda u hijozga muvofiq ekanligi ma`lum bo`ladi.

Demak dastlab ovoz ko`lami ikki (Dugoh), uch (Segoh) va to`rt (Chorgoh) tovushlari doirasida bo`lgan sodda ko`rinishli ko`hna kuy tizimlarining muayyan maqomlarning yettita asosiy pardalari bo`ylab bosqichma-bosqich rivojlovi natijasida ularning yangi sifat (ye`ni maqom) darajalari yuzaga kelgan edi, deyish mumkin. Aynan shu sifatlari darajasida ular keyinchalik yuzaga kelgan yangi maqomot (Shashmaqom, Xorazm maqomlarida-Dugoh va Segoh, Farg`ona- Toshkent maqom y`ollarida Dugoh, Segoh va Chorgoh maqomlari) tizimidan o`rin olgan edi. Mantiqiy xulosa shuki, bu jarayonda avvallari qo`llanib kelingan Segohi-Hijoz, Dugohi-Husayniy, Chorgohi-Zangula kabi sho`ba va maqom birikmalarini anglatuvchi qo`sh nomlar asta-sekin o`z mohiyatini yo`qota boshlagan. Chunki, sho`ba (kuy) tizimlari maqom pardalarida rivojlanishi davomida ularga shu qadar tabiiy singib ketgan ediki, natijada bu sho`balarning nomlari nafaqat ushbu pardalar doirasidagina tafakkur etiluvchi yangi kuylarni, balki ayni paytda, ana shu mukammal pardalarning o`zini ham ifoda etuvchi tushunchalarga aylangan edi. Binobarin, bugungi kunda Dugoh, segoh va Chorgoh nomlari bilan mashhur maqom namunalari mazmunida Husayniy, Hijoz va Zangula maqomlari pardalarining “hayoti” ham davom etayotganligini e`tirof etish kerak.

- a) Binobarin, olingan natijalar asosida tasavvufdagi “solik-suluk” nisbatini O`n ikki maqom tizimida shunday tasavvur etish imkoni yuzaga keldi;
- b) mukammal pardalar (tovushqatorlar) sifatida tasnif etilgan O`n ikki maqomning har biri “suluk” (musiqiy “yo`l”) o`rnida namoyon bo`ladi;
- c) xalq musiqasining ko`hna qatlamlariga mansub sodda tuzilishli (Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Navro`zi Bayot va b.) sho`ba kuy tizimlari solik “y`olovchi” siymosini o`ziga xos razm etadi;d) musiqa amaliyotida sho`ba kuy tizimlari muayyan maqomning parda bosqichlariga tayangan holda zaruriy (komil) sifat darajasiga qadar rivojlanadi. Binobarin, bu jarayonda mukammal pardalarning

yettita asosiy tovush-bosqichlari maqom (ya'ni kuy tizilmasining tayanch pardalari) sifatida qo'llaniladi.

Demak, “maqom” deganda musiqada “nomukammal holatdan mukammal holatga” qarab rivojlanishning muayyan ijodiy uslubi ham anglashilar ekan. Yuqoridagilarga umumlashtirgan holda maqom xususidagi ta'riflarga quyidagilarni qo'shimcha etamiz:

Maqom – bu sadolarda in'ikos etgan hikmatlardir. Insonning ruhiy ma'naviy kamoloti sari yuksalishi va shu tariqa chin haqiqatga erishuvi bu hikmatlar o'zagini tashkil etadi.

Maqom – bu tariqat bosqichlarining o'ziga xos musiqiy ifodasi bo'lgan mukammal pardalar uyushmasi va asosda berilgan kuy mavzuini ma'lum yo'sinda (quyidan yuqoriga qarab izchil) rivojlantirish uslubidir.

Maqom borasidagi ushbu ta'riflar nafaqat O'n ikki maqom, balki Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga ham bevosita dahldordir. Bu o'rinda ularning tarkibiy qismlarida “maqom” so'zi bilan birga yana “samo”, “gardun”, “qalandar”, “samandar”, “giryay”, “nola”, “charx”, “faryod”, “soqiynoma”, kabi k'oplab tasavvuf istilohlarining qo'llanishi, shuningdek, asosiy aytim yo'llarida yuksak ishq (Hofiz, Jomiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Bedil va b.) mazmunidagi g'azallarning kuylanib kelinishi, shuningdek, “sof” musiqiy jihatdan esa mukammal parda yo'llari asosida (tariqat jarayonlarining badiiy aksi o'laroq) kuy mavzularini bir tartibda izchil rivojlantirib, ularning avj sifatlarini namoyon etish tamoyili kabi omillarni dalillar qatorida keltirish mumkin. Lekin eng muhim dalil bu buyuk ishq dardi ila yo'g'irilgan maqomlar musiqasidir. Chinki bi musiqa mazmunida pok ruhiyatning asl go'zallik, chin haqiqat sari ma'naviy xuruji o'z ifodasini topdi. Binobarin maqomlarning asrlar osha o'z badiiy qiymatini yo'qotmasligi va ayni paytda, millionlab odamlar qalbidan o'rin olganligining asl sabablaridan biri ham ularning teran ma'nolarga yo'g'irilgan go'zal navolari-yu, beqiyus shakl-shamoillari bilan izohlanadi. Zero, ma'naviyatdan uzilgan har qanday go'zallik oxir-oqibat yoqimsizdir.

Demak, maqomlar nafaqat Sharq musiqa madaniyati, balki insoniyat qo`lga kiritgan ulkan hodisa bo`ldi. Zotan maqomlar insonlarda sof, muqaddas tuyg`ularni uyg`otuvchi, ruhiyatni nafs to`siqlari uzra asl maqomlari sari yuksalishga da`vat etuvchi ma`naviy navolarimizdir

XULOSA

Yosh avlodni yuksak madaniyatli, estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar yetib tarbiyalashda musiqiy ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Xususan, o'zbek musiqa san'ati bu borada katta imkoniyat kalitidir. Bunday imkoniyatni qay darajada aniq, to'g'ri va ravon bajarilishi musiqa ta'lim fidoyilarining shijoatiga bog'lik. Umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim- tarbiya berayotgan ustoz va murabbiylar ko'proq qiyinchilikni o'z gardanlariga oladilar. Sababi, xali na yozishni va na o'qishni bilmaydigan, biroq kelajakda buyuk insonlar bo'lib etishishi mumkin bo'lgan jajji o'g'il-qizlarning taqdiri ularning qo'lidadir. Shuning uchun o'quvchi yoshlarga dars berish jarayonimizda o'ta sergaklik va tashabbuskorlik bilan ishga kirishishimiz lozim. Bir kichkina xato ham kelgusida pand berishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda musiqa darsini tashkil etish orqali o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirishda eng avvalo qo'shiqdan, kuydan zavq olishni o'rgatish muhimdir. O'qituvchi ularga dars berishda, o'quvchilarda estetik tarbiyani uyg'otishda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarda musiqani sevish, unga havas va qiziqish uyg'otish;
- vokal-xor malakalari hamda qo'shiq kuylashning boshlang'ich saboqlarini berib borish;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish;
- nutq madaniyatiga rioya etish;
- o'quvchilarning badiiy didlarini tarbiyalash (kiyinish madaniyati, gavdani tik tutish holatlari).

Ushbu vazifalarni amalga oshirish birinchi sinfdan boshlab, toki yuqori sinfgacha sistemali ravishda davom etib boradi. Musiqa madaniyati o'quv dasturiga kiritilgan ashulalar ham o'quvchilarning yoshi va qiziqishi, mazmunan rang-barangligi, qiziqarli ohangdorligi bilan estetik madaniyatni yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Unda, ayniqsa ona Vatan, go'zal tabiatni ifodalovchi, yil fasllari, qushlar va hayvonot olami haqidagi lirik raqs hazil-mutoyiba xarakteridagi ko'plab qo'shiqlar o'quvchi yoshlarning estetik zavqini

o'shirib borishga, tarbiyaviy-madaniy vazifalarni uddalashga va ashula aytishda zaruriy malakalar hosil qilishga yordam beradi. Tabiat va yil fasllari haqidagi qo'shiqlarni o'rganish va ijro etish o'quchilarda o'ziga xos katta taassurot qoldiradi, ularda tabiat go'zalligiga bo'lgan ijobiy munosabatlarini shakllantirib boradi. Qo'shiqlarda ifoda etilgan tabiatning go'zalligi, o'ziga xos husn chiroyi yil fasllarining takrorlanmas xususiyatlarini idrok etish va his qilish, maqsadga muvofiq uyushtirib boriladigan qisqa va qiziqarli suhbatlar, savol-javoblar hamda tabiatni bevosita kuzatishlar jarayonida amalga oshiriladi. Musiqa va estetik madaniyatning paydo bo'lishi hamda shakllanib borishida tinglanayotgan har bir asarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirib olinishiga bog'liq. Shunda o'quvchi o'qituvchi tomonidan berilayotgan saboq va tarbiya ko'nikmasini o'zida to'la mujassamlashtiradi. Ma'lumki, musiqiy tarbiya jamiyat hayotining muhim qismidir. U inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning his-tuyg'ularini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi. Bir so'z bilan aytganda aynan fol'klor san'ati orqali inson hayotni o'rganadi, tasavvuri kengayadi, qadimiy urf-odatlar va milliy an'analarimizga sodiq bo'lishni o'zida shakllantiradi, shu bilan birga estetik rivoj topadi. O'zbek fol'klorini o'rganish orqali yoshlar xalqona milliy ko'rinishni o'zlarida ifodalaydi, erkin, mustaqil fikrlashga ega bo'ladilar. Shu bois, fol'klor san'ati ularda nafosat hissiyotlarini ham tarbiyalab, ularning ma'naviy, g'oyaviy hamda axloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirib, oliyjanob fazilatlarni kamol toptirishda ta'sirchan vosita sifatida qo'llaniladi. Yoshlarda estetik tarbiyani shakllantirishni ravnaq toptirish uchun eng avvalo pedagog kadrlarga e'tiborni qaratish zarur. Biz har bir so'zimizda musiqa insonni tarbiyalaydi deya qayta-qayta ta'kidlaymiz, biroq, musiqani to'la anglagan haqiqiy mutaxassisgina yosh avlodga musiqa sirlarini to'g'ri yo'nalishda o'rgata oladi. Tajribalardan kelib chiqib joylarga borganimizda musiqa mutaxassisligiga ega bo'lmagan tajribasiz o'qituvchilarning musiqa darslarini berayotganligiga duch kelganmiz. Ular dars jarayonida o'quvchiga nota savodini, musiqa tinglashni, musiqaga ritmik jo'r bo'lishni va musiqa bilan harakatni o'rgatish tugul mavzuda berilgan qo'shiqni baqir-chaqir

orqali noto'g'ri o'rgatayotganligining guvohi bo'lganmiz. Xo'sh, bola ushbu darsda qo'shiqni to'g'ri o'rgana olmayapti-ku, qanday qilib estetik zavq olsin! O'quvchilarni kuzatganimizda darsga befarq, ovozi tushsa tushmasa qo'shiqni hirgoyi qilishga harakat qilayotganligini, partalarni chalib shovqin bilan o'tirishini o'zida hech qanday madaniyat, zamonaviy usuldagi dars ko'rinishi uchramaydi. Demak, bunday muammolarning yechimi o'z kasbiy mutaxassisligiga ega kadrlarni joyiga qo'yishni to'g'ri rejalashtirishdadir.

Shuni unutmashligimiz kerakki, xalq qo'shiqlaridan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda ularni badiiy yetukligi, g'oyaviy mazmuniga ko'ra tarbiyaviy-ta'sirchanlikka ega namunalariga e'tibor berish, o'quvchi-yoshlarni turli yosh davrlariga, ovoz diapozoni, kuylash imkoniyatlariga mos kelishiga ko'ra tanlash eng muhim pedagogik talablardandir. Aksincha, yengil-yelpi, badiiy sayoz qo'shiqlar esa bola qalbini his etish tuyg'usini, estetik didini nogiron qilib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ilk maktab yoshlaridanoq chinakam san'at asari bo'lgan xalq ijodiga xos qo'shiqlar bilan yengil-yelpi, "bir eshitgulik" qo'shiqlarni farqlash, unga nisbatan o'z munosabatlarini bildirib olishdek ko'nikma va malakalarini shakllantirib borish musiqiy-estetik tarbiyaning dolzarb vazifalaridandir.

Bugungi kunda fan-texnikaning misli ko'rilmagan darajada rivojlanishi ta'sirida san'at olamida ham musiqali kliplar, o'ziga xos, ba'zida uncha-muncha odamni tushunishi qiyin bo'lgan yo'nalish va ko'rinishlarini yuzaga kelishi va "moda" tusiga kirishi avj olib bormoqda. Ko'pgina yoshlar o'zlari sezmagan holda bunday yengil-yelpi, hech qanday badiiy sifat, shakl va mazmunga ega bo'lmagan, ayniqsa, bizning xalqimiz ruhiyatiga mos bo'lmagan, bemani tasvirlar bilan bezatilgan ohanglar ta'siriga tushib qolayotganligi tashvishli holdir. Bu haqda radio, televedeniya, ommaviy axborotlarda ko'p garilsa-da, amaliy ishlar ko'ngildagidek emas.

Musiqa hayotbaxsh jozibasi, qudratli ta'sir kuchi, ayniqsa barkamol avlodni tarbiyalashdagi bunyodkor kuchi haqidagi fikrlarimizni Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so'zlari ham yaqqol tasdiqlaydi: "... agar insonning

qulog`i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o`rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma`naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo`ladi”

Mening bitiruv malakaviy ishim kirish ikki bob, to`rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat. BMI ning kirish qismida mavzuning maqsad va vazifalari yoritilgan. Birinchi bobda maktablarda tadbirlarning mazmunli o`tishi uchun to`garaklar tashkil etishning xususiyatlari yoritib berilgan. Ushbu bob ikki paragrafdan iborat bo`lib mazkur bobda qo`shiqchilik to`garagini tashkil etishning xususiyatlari va milliy qadriyatlarga bag`ishlangan tadbirlarning pedagogik imkoniyatlari haqida bayon qilingan.

Ikkinchi bobda o`quvchilarni estetik, ma`naviy tarbiyalashda tadbirlarning o`rni haqida batafsil yoritib berilgan. Bu bob ham ikki paragrafdan iborat bo`lib bunda bayram tadbirlari orqali o`quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish xamda umumta`lim maktablarida tadbirlarni mumtoz musiqa bilan bog`liqlik xususiyatlari to`g`risida bayon qilingan. barcha mavzu materiallari aniq manba va dalillar asosida yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Karimov O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida; "O'zbekiston". 1997, 137 bet.
2. Qodirov A, Sidiqov B. Prezidentimiz I. Karimovning "O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqiyot kafolatlari" asarini o'rganish bo'yicha qo'llanma.
3. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkura xalq, millatni- millat qilishga xizmat qilish. "Tafakkur" 1998 yil.
4. Karimov Barkamol avlod – o'zbekiston taraqqiyotining poydevori . T; "O'zbekiston" 1997 yil.
5. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. T. 1991 yil.
6. Mardonova G.a Nur to'la uy. T. Mehnat, 1992 yil
7. Ismoilov X. O'zbek to'ylari. T. o'zbekiston 1992 yil
8. Sattorov M. O'zbek udumlari T. "Fan", 1993 yil.
9. Qurbonova N. O'zbek marosim folklori 1994 yil.
10. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. Toshkent; 1996 yil
11. Raxmon S. To'y tabriklari. Toshkent; 1995 yil.
12. Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yini folklori Toshkent; 1998 yil.
13. G'aniyev D, To'rayev P. Islom; Bag'rikenglik va mutanosiblik. 1998
14. Gofurov Z. Siddiqov B. Ma'naviy yukasalish - tarqiyot omili Toshkent DTU, 1998 yil.
15. Nurmatov H, Ibroximov O. Musiqa. 6-sinf o'quv qo'llanmasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1997.- 110 b.
16. Nurmatov H. Musiqa estetik madaniyat. - Toshkent: 1992
17. Pedagogik texnologiya asoslari. Maktab va xayot ilmiy-metodik jurnalining 6-soniga ilova. Prof. Jo'raev R.X. taxriri ostida. – Toshkent, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi. 2003.-
18. A.I. Sherbinov yoshlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyasidan praktikum Toshkent 1991 yil